QALQON

2 (329) 2026
FEVRAL

ЩИТ • SHIELD

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI JURNALI
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
JOURNAL OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tabarruk ona tuproq bag‘ishlaydi kuch bizga,
Shu Vatanni asramoq — eng muqaddas burch bizga.
Ulg‘ayib eng oldingi saflardan joy olamiz,
Mardona qasamyodga mangu sodiq qolamiz!



USHBU SONDA







2. YUKSAK STRATEGIK MAQSAD IFODASI

4. «ISTIQLOL» – «YASHIL»LAR QATORIDA

6. XAVFSIZLIK – NAZORATDA

8. G‘AMXO‘RLIK VA HIMOYA MASKANI

10. SOBITQADAMLIK – UNGA XOS

11. O‘ZBEKISTON TEMIRYO‘LLARI TARIXIDAN

12. SAYYOHLAR ZARINADAN MAMNUN

14. ВНЕ ЗОНЫ РИСКА

16. XODIM RUHAN TETIK BO‘LSA...

18. ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA

20. NAVOIY ULUG‘LAGAN INSONLAR

23. ASHYOVIY DALILLAR TILGA KIRGANDA...

24. IFTIXOR MAKTABI

26. УМРДАН РОЗИЛИК — КАТТА БАХТ

28. СЛУЖБА КАК ПРИЗВАНИЕ



28



33

30. KORRUPSIYAGA QARSHI IMMUNITET

33. SAN'AT GO‘ZALLIKDIR

36. OSOYISHTALIK OMILLARI

39. WHEN PHYSICAL EVIDENCE SPEAKS...

40. ILLAT ODATGA AYLANSA...

42. XIZMAT ITLARI KO‘MAGIDA

44. EZGULIK YO‘LIDA

46. TELEFON TARBIYALAYOTGAN BOLALAR

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy-huquqiy jurnali

QALQON-ЩИТ-SHIELD

2026-yil 2 (329)-son
1998-yil sentabr oyidan chiqa boshlagan

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Bosh muharrir, polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV,
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas‘ul muharrir
Erkin SATTOROV

Nashr uchun mas‘ullar
Kamol OLLOYOROV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta leytenant
Madina QAHHOROVA

Navbatchilar
Sarvar SOBIROV,
Radik TUMPAROV
Tuzatuvchi
Umida SAPAROVA

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2018-yil 10-avgustda 0125-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda «Qalqon-ЩИТ-Shield»dan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Jurnal IIV Birlashgan tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Bosishga ruxsat etildi
2026-yil 20-fevral
Formati 60x84 1/8. 6 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Buyurtma № 208
Nashr adadi 15268
ISSN 2010-5347

«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Mas‘ul Akmal MURATOV
Toshkent sh. Mirobod tumani, Qo‘shko‘prik ko‘chasi, 28/1-uy.
Indekslar: yakka tartibdagilar uchun – 970
tashkilotlar uchun – 1083.

Manzilimiz: 100070,
Toshkent shahri Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Telefonlar:
71-231-33-88,
71-231-41-66.

YUKSAK STRATEGIK MAQSAD IFODASI



Ahmad ISMOILOV,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), «Shuhrat» medali sohibi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi strategik maqsadimiz – har tomonlama rivojlangan, erkin va farovon, zamonaviy, demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Undagi oltinchi ustuvor yo‘nalish – zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarga to‘xtalsak.

So‘nggi yillarda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, ushbu muhim organni tashkiliy-institutsional nuqtayi nazaridan tubdan takomillashtirish mamlakatimizdagi huquqiy siyosatning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Birgina odil sudlov faoliyatini to‘laqonli amalga oshirish maqsadida keyingi 9 yilda 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularning ijrosi milliy sud tizimi qiyofasini tubdan o‘zgartirdi. Natijada xalqaro talab va standartlarga to‘laligicha mos keladigan bir qator yangi zamonaviy tuzilma va organlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning ochiq, oshkora va muqobil tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etilishi, milliy sud tizimimizda ilk bor sudyalarning vakolat muddatlari qayta ko‘rib chiqilishi, sud hokimiyatining ijro hokimiyatidan moliyaviy mustaqilligining huquqiy asoslari yaratilib, adliya organlarining umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash sohasidagi vazifa va vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga o‘tkazilishi hamda milliy sud tizimi tarixida birinchi marta

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan ma'muriy sudlar tashkil etilishi kabi ijobiy o‘zgarish va tendensiyalarni sanab o‘tish mumkin.

Davlatimiz rahbarining Murojaatnomasida sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi. Xususan, sud tizimini tubdan demokratlashtirish, buning uchun sud organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish muhim vazifalar qatorida belgilandi.

Murojaatnomadagi adolatli sud-huquq tizimini takomillashtirishga qaratilgan eng muhim g‘oya va tashabbuslardan yana biri – 2026-yildan boshlab tergov sudyalariga sanksiya va majburlov choralarini o‘zgartirish hamda bekor qilish vakolatlarini berish masalasi bo‘ldi. Kelgusida tergov sudyasi o‘zi ruxsat bergan qamoqqa olish, uy qamog‘i yoki garov ehtiyot chorasini o‘zi o‘zgartirishi, qonuniy deb topsa, bekor



qilishi mumkin. Shuningdek, u ayblanuvchiga nisbatan qo‘llanilgan pasport harakatini cheklash, O‘zbekiston Respublikasidan chiqishni taqiqlash, mol-mulkni xatlash yoki telefonlar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish kabi protsessual majburlov choralarini ham bekor qilishga haqli.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ayni paytgacha milliy sud tizimimizda mavjud bo‘lmagan yangi bir institutni tatbiq etish g‘oyasi ilgari surildi. «Endi jinoyat protsessiga ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan «xalq vakillari hay'ati» instituti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda o‘ta og‘ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo‘layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko‘rib chiqilishi sud hukmining yanada adolatli bo‘lishiga xizmat qiladi», dedi davlatimiz rahbari.

Xulosa qilib aytganda, Murojaatnomada adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirishga qaratilgan g‘oya va tashabbuslar mantiqiy izchillikka asoslangani va bir-birini to‘ldirib borayotgani yaqqol ko‘rinib turadi. Ularning tub negizida inson, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash, farovonligini oshirib borish singari insonparvarlik va adolatparvarlik tamoyillariga asoslangan g‘oyalar yotadi. Ushbu ezgu g‘oyalarning hayotiy ijrosini ta'minlash ko‘p sonli huquqshunos kadrlar, xususan, sudyalar korpusiga, sud tizimi xodimlari zimmasiga juda katta mas'uliyat va vazifalar yuklashi tabiiy. Buning uchun, birinchi navbatda, sudyalarimiz nafaqat professional kasb faoliyatini amalga oshirishda, balki kundalik hayotida ham «Sudyaning ongida adolat, tilida haqiqat va dilida poklik ustuvor bo‘lishi shart» degan shiorga qat'iy amal qilishlari lozim.

«Istiqlol» makon fuqarolar yig‘ini Ellikqal'a tumani markazidan uncha uzoq bo‘lmagan hududda joylashgan. Tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan olib borilgan ishlar natijasida mazkur hudud ikki yildan buyon «yashil» toifada. Albatta, bunda tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Elmurod Egamberdiyevning hissasi katta.

«ISTIQLOL» – «YASHIL»LAR QATORIDA



– Ayni kunda men xizmat olib borayotgan makon fuqarolar yig‘inida 2800 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Hududda tinchlik-osoyishtalikni saqlashda makon fuqarolar yig‘ini raisi Ergash Turganbayev, hokim yordamchisi Umar Davletov, yoshlar yetakchisi Diyorbek Satimov, ijtimoiy himoya xodimi Aynura Saparbayeva hamda faollar yaqindan yordam berib kelmoqda. Ana shu yaqin hamkorlik tufayli hududning jinoyatdan xoli bo‘lishiga erishdik. Ayni paytda «xonadonbay» o‘rganishlar davomida aholi muammolarini bartaraf etishga, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiryapmiz, – deydi kapitan Elmurod Egamberdiyev.

Haqiqatan ham, o‘tgan davrda profilaktika inspektori tomonidan aholining yashash sharoiti, muammolarini o‘rganib chiqish davomida fuqarolar yig‘ini mas'ullariga 100 dan ortiq xulosalar berilgan. Ulardan 66 tasi ijobiy yechimini topgan, qolganlari bo‘yicha tushuntirish berilgan.

Misol uchun, o‘rganishlar davomida fuqaro I.Sultanova tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagi borligini bildirdi. Shu yuzasidan berilgan xulosa o‘rganib chiqildi va ayolga 33 million so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Natijada u kichik tikuvchilik sexini tashkil etib, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.

Xuddi shuningdek, fuqaro G.Ermekbayevaga ko‘rsatilgan amaliy yordam natijasi o‘laroq, unga «Har bir oila tadbirkor» dasturiga binoan 30 million so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘i ajratildi. Bu mablag‘ evaziga pishiriq sexi ishga tushirilib, uch kishining bandligi ta'minlandi.

Maqolamiz qahramoni E.Egamberdiyev Ajiniyoz nomidagi Qoraqalpoq davlat pedagogika institutini tamomlagach, ichki ishlar organi xodimi bo‘lishga qat'iy qaror qiladi. Sababi, otasi Sapa Egamberdiyev ichki ishlar organlarining tergov sohasida uzoq yillar xizmat qilib, mayor unvonida iste'foga chiqqandi. Akasi Dilmurod esa o‘sha paytda tizimda xizmat qilayotgan edi.

Elmurod Egamberdiyev dastlab Ellikqal'a tumanida profilaktika inspektori yordamchisi vazifasida ishlab, podpolkovnik Nodirbek Bog‘ibekov, kapitan Vaisbek Saparovdan sohaning ilk ko‘nikmalarini o‘zlashtirdi. 2020-yilda xizmatga qabul qilinib, faoliyatini Nukus shahridagi 2-sonli tergov hibsxonasida nazoratchi lavozimida boshladi. Keyinchalik Beruniy va Ellikqal'a tumanlarida, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatida ishini davom ettirdi. U qariyb ikki yildan beri hozirgi lavozimida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.



XAVFSIZLIK – NAZORATDA

RAQAMLAR BUNI TASDIQLAYDI

Bugungi kunda boshqa sohalar qatori, ichki ishlar organlarining qo‘riqlash xizmati faoliyatida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyati IIB huzuridagi Qo‘riqlash xizmati tomonidan mol-mulk va jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning oldini olish yo‘nalishida qilinayotgan ishlar samarasi bugun aniq raqamlarda o‘z ifodasini topmoqda.





Ayni paytda viloyat bo‘yicha 7 ming 685 ta obyekt, 8 ming 199 ta xonadon doimiy nazorat ostida qo‘riqlanmoqda. Olib borilgan tezkor harakatlar natijasida 4 ta o‘g‘rilik jinoyati «izlar bosilmay» fosh etildi. Shuningdek, jamoat tartibini buzishga qaratilgan 985 ta holatning oldi olindi. Qidiruvda bo‘lgan 7 nafar shaxs qo‘lga olindi.



Masalan, Kasbi tumani «Oqqamish» mahallasida joylashgan savdo majmuasidan tungi vaqtda tashvish signali kelib tushgach, tezkor harakatlanuvchi guruh to‘rt daqiqa ichida voqea joyiga yetib bordi va majmua eshigini buzib kirgan shaxs qo‘lga olindi. Surishtiruvlar davomida bu fuqaro shu mahallada yashovchi E.T. ekani aniqlanib, u hudud profilaktika inspektoriga topshirildi.

Boshqarma huzuridagi Qo‘riqlash xizmati hamda uning shahar-tuman bo‘limlari tomonidan viloyat hududidagi 776 ta mahalla to‘liq qamrovga olingan. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda xavfsizlikni yanada kuchaytirish uchun 54 ta «qizil» toifadagi mahallaga tezkor harakatlanuvchi guruhlar yaqinlashtirildi. Bu amaliyot o‘zining ijobiy natijasini berdi. Chunonchi, bunday mahallalar soni qisqarib, ko‘plab mahallalar xavfsiz toifaga o‘tkazildi.

Shu kunlarda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, turli obyektlarini ishonchli qo‘riqlash, shuningdek, xizmat qamrovini kengaytirish maqsadida joylarda tushuntirish-targ‘ibot ishlari izchil olib borilyapti. Profilaktik tadbirlarning jadallashuvi natijasida aholining qo‘riqlash xizmatiga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan raqamlar shunchaki statistik ma'lumotlar emas. Ular oldi olingan jinoyatlar, kuchaytirilgan nazorat hamda viloyatda kun sayin mustahkamlanib borayotgan xavfsizlik muhitining yaqqol ifodasidir.



Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.

G‘AMXO‘RLIK VA HIMOYA MASKANI


Jizzax shahridagi shifoxona yaqinida nazoratsiz yurgan kichkintoylar – 3 va 5 yoshli ikki bola viloyat IIBB HPBga qarashli Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga keltirilganida tush payti edi. Kichigi qo‘rquvdan tinimsiz yig‘lar, ukasini mahkam quchoqlab olgan qizaloq esa yon-atrofga mo‘ltirab qarar, nimalar bo‘layotgani, qayerga kelib qolganidan hayrat ko‘zlarida akslanib turardi. Markaz psixologi Muqaddas Hasanova ularni bag‘riga bosib: «Onangizni albatta topamiz», – deya yupatdi. Boshqa xodimlar ovqatlantirishdi, kulib gapirib, dillariga yo‘l topishdi. Iliq muomaladan o‘zlariga kelgan bolalardan ota-onasining ismi, yashash manzili, telefon raqami so‘raldi. Ammo bolalar ota-onasining ismlaridan boshqa ma'lumotni ayta olmadi.



Shundan so‘ng surishtiruv ishlari boshlanib ketdi. «102» xizmatiga xabar berildi, hamkor tashkilotlarga ma'lumot yetkazildi. Profilaktika inspektori bolalar topib olingan «Toshloq» mahallasidagi ijarada turgan oilalar bilan bog‘landi. Hududga o‘rnatilgan videokuzatuv kameralaridagi tasvirlar tekshirildi.

Olib borilgan jadal qidiruv ishlaridan so‘ng bolalarning onasi topilmay qolmadi. U Baxmal tumanidan kelib, to‘ng‘ich farzandini davolatayotgan, bolalarni ijara uyda qoldirib, o‘zi shifoxonaga ketgan ekan. Bir dardiga yuz dard qo‘shilgan onaizor jigarbandlarining daragini eshitgan zahoti muassasaga yetib keldi. Dilbandlarini bag‘riga bosib yig‘larkan, markaz xodimlariga minnatdorlik bildirdi.

– Markazga keltirilgan ayrim o‘smirlarning hikoyalari jamiyatning og‘riqli nuqtalaridir. Demak, ularning oilasida noxush holat, huquqbuzarlik bo‘lishiga sharoit pishib kelmoqda. Biz bu haqda hokimliklar, ichki ishlar bo‘limlari, prokuratura, bolalarni himoya qilish komissiyalariga xabar beramiz.







O‘smir yashaydigan mahalla yettiligi, tahsil olayotgan ta'lim muassasasi bilan bog‘lanamiz. Xullas, masala oila miqyosida emas, tuman-shahar darajasida yechim topmaguncha jarayon to‘xtamaydi, – deydi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi boshlig‘i, podpolkovnik Azamat Urinboyev.

Markazda bolalar 48 soatdan bir oygacha bo‘lgan muddatda saqlanadi. Ayni kunda muassasada 3 nafar voyaga yetmagan bor. Ularning ta'lim olishi uchun Jizzax shahridagi 6-sonli maktab bilan qo‘shma qaror qabul qilingan. O‘qituvchilar har kuni kelib, turli fanlardan saboq beradi. Markaz kutubxonasi ishlab turibdi. Bu yil rassomlik, hunarmandlik kabi yangi to‘garaklar ochilishi rejalashtirilgan.

– Bir oy kam muddat emas. Bu vaqtda muassasa tarbiyalanuvchisi umumiy o‘rta ta'lim olish barobarida, hunar o‘rganishga ham jalb qilinadi. O‘tgan yili Jizzax shahar «Ishga marhamat» monomarkazi bilan tuzilgan shartnoma asosida 4 nafar bolaning turli kasblarga o‘qitilishi ta'minlandi. Bolalar ota-onasi yoki vasiy-homiy ixtiyoriga topshirilgandan so‘ng ham monomarkazda o‘qishi nazoratga olindi, – deydi markaz ijtimoiy xodimi Nodira Risqulova.

Xulosa qilib aytganda, Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi faoliyati ichki ishlar organlarining faqat qonuniy tartibni ta'minlovchi emas, balki jamiyat, ayniqsa, yosh avlod taqdiriga befarq bo‘lmagan, mas'ul va g‘amxo‘r tuzilma ekanini ko‘rsatadi. Eng asosiysi, har bir bola davlat va jamiyatning doimiy e'tibori va himoyasida ekanini amalda isbotlaydi.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

SOBITQADAMLIK – UNGA XOS

Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Denov temiryo‘l bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo‘linmasi PPX bo‘linmasi komandiri, safdor Akrom Mardayev qariyb 15 yildan beri ushbu sohaviy xizmatda sidqidildan faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Temiryo‘l bekatida joriy etilgan xizmat tizimiga ko‘ra, uchta yo‘nalish bo‘yicha postlar faoliyat yuritadi. Dastlab vokzalning kirish qismida yo‘lovchilarning hujjatlari ko‘zdan kechiriladi, harakatlari nazorat qilinadi. Keyingi bosqichda ularning poyezd vagonlariga chiqishi, shuningdek, yuk poyezdlarining vokzalga kelib-ketishi, yuklarning xavfsiz tarzda tushirib olinishi va saqlanishi qat'iy nazoratga olinadi. Bularning barchasi katta mas'uliyat, doimiy hushyorlik va tezkor qaror qabul qilishni talab etadi.

– Ba'zan yuk vagonlari kelishi bilan ayrim fuqarolar tomonidan vagonlarga osilish, yuklarni o‘g‘irlashga urinish holatlari uchrab turadi. Bunday paytlarda xodimlarimiz bilan birgalikda bir necha marotaba jinoyatlarning oldini olganmiz, – deydi safdor Akrom Mardayev.

Lavhamiz qahramoni xizmat faoliyati davomida nafaqat Denov, balki Termiz va Sho‘rchi tumanlaridagi temiryo‘l bekatlarida ham ishlagan. Qayerda xizmat qilmasin, o‘z burchini vijdonan, hushyorlik bilan bajarib kelgan.



... Kuz oylarining birida, navbatchilik vaqtida poyezddan tushgan bir yo‘lovchining harakatlari safdor Akrom Mardayevda shubha uyg‘otadi. Bu bejiz emasdi. Nazorat punkti oldida to‘xtatilgan fuqaro sarosimaga tushib, o‘zini eshikka uradi. Tezkorlik bilan harakat qilgan Akrom Mardayev va

uning hamkasbi fuqaroni ushlab, nazorat xonasiga olib boradi. Tekshiruv davomida esa unda gashish giyohvandlik moddasi borligi aniqlanadi.

Akrom Mardayev hamkasblari orasida nafaqat zo‘r qat'iyati, balki tabiatan ochiqko‘ngilligi, insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Odatdagi ish kunlarining birida poyezdga chiqish uchun kelgan 70 yoshli otaxon 1-nazorat postida hujjat tekshiruvi vaqtida tobi qochib, yerga yiqiladi. Voqeaga guvoh bo‘lgan qahramonimiz zudlik bilan birinchi tibbiy yordam ko‘rsatib, uning hayotini saqlab qoladi.

Safdor A.Mardayev oilali, uch nafar o‘g‘ilning otasi. U farzandlarining o‘z izidan borib, Vatanga xizmat qiluvchi mard yigitlar bo‘lib voyaga yetishishini istaydi. Shu bois ularning ta'lim-tarbiyasi, sport bilan shug‘ullanishi va intizomiga alohida e'tibor qaratadi.

– Oilada besh o‘g‘il, bir qiz o‘sganmiz. Bugun barchamiz jamiyatga foyda keltirayotgan insonlar bo‘lib yetishdik. Bu, avvalo, ota-onamizning to‘g‘ri tarbiyasi samarasi. Shuning uchun doim ulardan minnatdorman va duolarini olishga harakat qilaman, – deydi u faxr bilan.

Fidokorona xizmati, jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faolligi va insonparvarlik fazilatlari uchun safdor Akrom Mardayev bir necha bor rahbariyat tomonidan tashakkurnoma va rag‘batlantirishlar bilan taqdirlangan.

Akrom Mardayev singari sobitqadam, o‘z burchiga sadoqatli, inson taqdiriga befarq bo‘lmagan xodimlar ichki ishlar organlari tizimining haqiqiy tayanchidir. Ularning mehnati tufayli yurt tinch, yo‘llar xavfsiz, fuqarolar xotirjam.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

BILIB QO‘YGAN YAXSHI

O‘ZBEKISTON TEMIRYO‘LLARI TARIXIDAN



1870-yillar boshida Orenburgdan Toshkentgacha temiryo‘l tarmog‘ini qurish zarurati tug‘iladi. Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘idan Qizil Orvat, Ashxobod va keyingi manzillargacha temiryo‘l qurishga qaror qilinadi. Kaspiyorti temiryo‘lini barpo qilish 1880-yil noyabr oyida boshlanadi. 1885-yilda temiryo‘l Ashxobodga, 1886-yilda Chorjo‘yga yetib keldi. 1888-yilning may oyida ko‘priklar qurilishi bilan Amudaryo orqali Samarqandga temiryo‘l harakati ochildi.

1899-yilda Ursatevsk (hozirgi Xovost) bekatidan Toshkentgacha va Farg‘ona vodiysida Andijonga 2 ta temiryo‘l tarmog‘i tashkil qilinadi. Samarqand–Andijon temiryo‘l liniyalari qo‘shilgandan keyin Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Kaspiyorti hududlari va Buxoro xonligi hududidan o‘tadigan O‘rta Osiyo temiryo‘llari tarmog‘i vujudga keladi. Bu paytda temiryo‘llarning umumiy uzunligi 2354 verstni tashkil qiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekiston hududida Salar–Barraj (1947), Chorjo‘y–Qo‘ng‘irot (1957), Navoiy–Uchquduq va Jizzax–Sirdaryo (hozirgi Mehnat) (1962), Keles–O‘zbekiston (1966), Barraj–Hojikent (1967), Superfosfat (hozirgi Maroqand)–Qashqadaryo (1970), Termiz–Qo‘rg‘ontepa (1974), Naymanko‘l–Nukus (1975), Nukus–Chimboy (1980) kabi yangi temiryo‘l uchastkalari barpo etildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yangi po‘lat izlarni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Qizilqum cho‘llarida Navoiy–Uchquduq–Sultonuvaystog‘–Nukus temiryo‘l tarmoqlari qurildi. Ayniqsa, murakkab tog‘ sharoitida bunyod etilgan Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on temiryo‘lining qurilishi katta ahamiyat kasb etdi.

2016-yil 22-iyunda O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik loyihasi ijrosi – Angren–Pop elektrlashtirilgan temiryo‘li hamda Qamchiq tunnelining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

SAYYOHLAR ZARINADAN MAMNUN



Buxoro shahrining tarixiy obidalarini tomosha qilib yurgan sayyohlardan biri tuyqusdan hushyor tortdi. Atrofga alang-jalang qarab, kimnidir izladi. So‘ng uyali telefoni orqali qo‘ng‘iroq qilib, xotinidan so‘radi:

– Onasi, qayerdasizlar? Tag‘in adashib qolmanglar.

– O‘zingiz qayerdasiz, qizingiz injiqlik qilmayaptimi? – so‘radi ayol ham.

– Qizim... U sen bilan emasmi?

– Nega men bilan bo‘larkan, o‘zingiz olib ketdingiz-ku...

– Nima-a-a?...



Sayyohning holatini shu onda tasavvur etish oson emas. Axir, besh yashar qizchasi salkam ikki soatdan beri qayerda bo‘lishi mumkin? Holi ne kechdi ekan? Azbaroyi asabiylashganidan boshi g‘uvullab, qon bosimi oshib, ko‘zi tinib, turgan joyida o‘tirib qoldi.

– Nima bo‘ldi sizga?

Shu yaqinda xizmat o‘tayotgan ichki ishlar organi xodimi yoniga kelib, erkakdan hol so‘radi. Osoyishtalik posboniga ko‘zi tushgach, u sal xotirjam tortib, xuddi najotkorini topgandek, tezda bo‘lgan voqeani aytib berdi.

Ma'lum bo‘lishicha, oila a'zolari bilan Buxoroi sharifga kelgan samarqandlik bu sayyoh qizim xotinim bilan qoldi, deb o‘ylagan, ayoli esa otasi bilan ketdi, deb e'tibor bermagan. O‘rtada qizaloq qarovsiz qolgan. Xodim sayyohga: «Xavotirlanmang, qizingiz hamkasbimning

yonida. Yaqinda bu haqda menga ma'lum qilgandi», dedi.

– Xizmat hududimni aylanib yurganimda, bir qizcha yig‘lab o‘tirganini ko‘rib qoldim. Ota-onasini yo‘qotib qo‘ygan ekan, – deydi viloyat IIB XTTB Jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, katta leytenant Zarina Samandarova biz bilan suhbatda. — Bu haqda rahbariyatga bildirib, qizchani viloyat IIB HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga olib borishni o‘ylab turganimda, hamkasbim uning ota-onasini boshlab keldi.

Katta leytenant Zarina Samandarova xizmat faoliyati davomida ana shunday holatlarning ko‘plab marotaba guvohi bo‘lgan.

Uning aytishicha, yozning issiq kunlari sayyohlarning sog‘lig‘iga e'tiborsizligi tufayli, hushdan ketishi, qon bosimi oshishi va oftob urishi holatlari ham kuzatiladi. Shu sababli sohaviy xizmat xodimlari ikki yilda bir marta birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini «Qizil yarim oy» jamiyati ko‘magida, xizmatdan ajralmagan holda oshirishadi. Bu, albatta, mehmon va sayyohlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda asqatmoqda.

Katta leytenant Zarina Samandarova o‘tgan yili 932 nafar mahalliy va xorijiy sayyohga turli amaliy yordam ko‘rsatdi. Bundan tashqari, Buxoro shahrining tarixiy qismida joylashgan madaniy meros obyektlaridagi mavjud muammolarni o‘rganib, ularni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi tashkilotlarga uch marta taklif hamda taqdimnomalar kiritdi.

–Zarina yosh bo‘lishiga qaramay, ancha mas'uliyatli va o‘ziga talabchan, – deydi viloyat IIB XTTB boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik Oybek Hasanov. – Bunday deyishimning boisi, jamoamizda xizmat



qilayotganiga uch yildan oshgan bo‘lsa-da, hali biror marotaba unga nisbatan e'tiroz bo‘lgani yo‘q. Doim xizmat intizomiga rioya qiladi, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradi. Shuningdek, turli musobaqalarda, ko‘rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etadi.

Ayol kishiga ichki ishlar organlarida xizmat qilish oson emas, albatta. Zarina Samandarova kasbini sevgani uchun ham qiyinchiliklardan cho‘chimaydi, boshqa xotin-qizlarga o‘rnak bo‘lishga intiladi.

2025-yil u uchun omadli keldi, ya'ni IIV Akademiyasining masofaviy ta'lim tinglovchisi bo‘ldi. Qisqasi, katta maqsadlarni ko‘zlayotgan katta leytenant Zarina Samandarova jamoada o‘z o‘rniga ega xodim.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



ВНЕ ЗОНЫ РИСКА

Обеспечение прав ребенка – долг общества, определяющий нравственное здоровье и жизнеспособность будущего нации.

Президентом Узбекистана утверждена Стратегия защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы. Этот документ кардинально меняет полномочия и алгоритмы взаимодействия правоохранительных органов с социальными службами. Стратегия нацелена на переход от модели реагирования на факты к системе превентивного мониторинга и глубокой реабилитации. Для сотрудников ОВД это означает внедрение новых стандартов работы, существенное усиление межведомственного партнерства.

Единая цифровая экосистема

Одной из главных проблем прошлого была разрозненность данных. В настоящее время ведется подготовка к запуску Единой электронной платформы. Система начнет аккумулировать сведения, обеспечивая доступ к истории каждой неблагополучной семьи. Любой сигнал – будь то звонок от соседа или случайного свидетеля – будет не просто фиксироваться в системе регистрации, а моментально сопоставляться с базой данных детей, нуждающихся в социальной защите.

Кроме того, в базу данных будут вноситься сведения о лицах, не только совершивших насилие, но и имеющих склонность к нему. Это станет важнейшим инструментом для инспекторов профилактики, специалистов по работе с несовершеннолетними при осуществлении надзора на вверенных участках.

Вводится также возможность отслеживать каждый этап реализации мер по конкретному случаю. Это минимизирует риск «замять» дело, затянуть сроки проверки или оставить ребенка в опасной среде без помощи: любая пауза в алгоритме действий сотрудника будет видна в системе надзорным органам.

Новые функции

Комиссии по вопросам детей наделяются широкими полномочиями, которые напрямую коснутся деятельности территориальных подразделений ОВД.

Анализ успеваемости и поведения: комиссии будут регулярно проверять, как дети, находящиеся в социально опасном положении, адаптируются в образовательных учреждениях.

Оценка работы госорганов: на комиссии возлагается функция изучения эффективности мер, принимаемых территориальными ОВД. Особое внимание будет уделяться тому, насколько результативно родители (или лица, их заменяющие) повышают свою ответственность после проведения профилактических бесед.

Реформа специальной сферы

Документ ставит точку в истории республиканских учебно-воспитательных учреждений для мальчиков и девочек. Вместо них создаются региональные центры поддержки и социальной интеграции в Самаркандской, Ферганской, Хорезмской и Бухарской областях.

Кроме того, внедряется институт профессиональной приемной семьи. Это не просто опека, а специально обученные граждане, работающие по договору с центрами «Инсон». Что касается финансирования, то на каждого ребенка государство будет выделять средства в двукратном размере МРОТ плюс расходы на проживание.

Совершенствование правовых механизмов

Начата деятельность по адаптации профильного законодательства под новые реалии. Это обеспечит сотрудникам ОВД четкую правовую базу для оперативного реагирования.

Одним из ключевых нововведений становится обязательное участие представителей органов опеки и попечительства при проведении любых процессуальных действий, если факт насилия зафиксирован со стороны родственников или законных представителей ребенка.

Усиливается роль инспекторов профилактики, инспекторов-психологов, которые получают весомый рычаг воздействия на работников сфер образования, здравоохранения и социальной защиты. Теперь за несообщение о выявленных фактах насилия в организациях любой формы собственности вводится административная ответственность. Это трансформирует роль педагогов, медицинских работников в активных субъектов профилактики, обязанных своевременно информировать органы правопорядка о фактах нахождения ребенка в социально опасном положении.

Значимым является также решение о передаче филиала Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена в Ташкенте в структуру Национального агентства социальной защиты. В филиале будут готовить кадры по инклюзивному образованию, психологии и социальной педагогике. Данные специалисты будут привлекаться для проведения экспертиз и участия в допросах несовершеннолетних, обеспечивая доказательную базу, которую невозможно будет оспорить в суде.

Главный посыл новой доктрины: органы внутренних дел – ключевой элемент системы обеспечения прав ребенка. Для сотрудников Стратегия 2026–2030 – требование работать адресно, используя интеллектуальные системы, обеспечивая индивидуальное сопровождение каждого ребенка, оказавшегося в сложной жизненной ситуации.

Азиз ИМАМОВ,
кандидат юридических наук, подполковник.
Самира САЙДУЛЛАЕВА,
курсант Академии МВД Республики Узбекистан.



XODIM RUHAN TETIK BO‘LSA...

Jismonan sog‘lom, ruhan tetik inson qaysi sohada mehnat qilmasin, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishning uddasidan chiqadi. Bunda atrofdagi odamlar, oilaviy munosabatlarning ta'sirini ham unutmaslik kerak. Oddiy misol, oilasida ahil-inoq, xotirjamlikda yashayotgan inson tanlagan kasb-koriga bor imkoniyatlarini, kuch-g‘ayratini sarflab, jamiyatda to‘laqonli shaxsga aylana oladi. To‘g‘ri, ba'zan kichik-kichik muammolar muayyan yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda ruhiyat bilimdonlari, ya'ni psixologlar tavsiyalari qo‘l keladi.

Bu psixologlarga nisbatan bir qarashda uyg‘onadigan fikrlar. Biroq har bir sohaning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, psixologlarning ham faoliyat ko‘lami kengayib, ahamiyat qaratish zarur bo‘lgan jihatlar ortib boraveradi.

Toshkent viloyati IIBB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati psixologik ta'minlash guruhi inspektor-psixologlari tomonidan sohaviy xizmatlar hamda viloyat ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan xodimlar bilan muntazam suhbatlar o‘tkaziladi. Bu suhbatlarda stressni

kamaytirish, tajovuzkorlikni nazorat qilish, xulq-atvorni barqarorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar berib boriladi. Shuningdek, jamoaviy munosabatlarni mustahkamlash, o‘z vaqtida, to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida psixologik treninglar tashkil etiladi. Shaxsiy va xizmatdagi muammolar, ularning yechimlari ham psixologlar e'tiboridan chetda qolmaydi.

– Ichki ishlar organlari xodimlarining aksariyati doim xalq orasida, odamlar bilan muloqotda xizmat olib boradi, – deydi viloyat IIBB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati psixologik ta'minlash guruhi bosh inspektori, mayor O‘tkir Raimbayev. – Ularning nafaqat jismoniy imkoniyatlari yuqori, balki ruhiy holati barqaror bo‘lishi lozim. Shu bois shaxsiy tarkib bilan ishlash jarayonida muammolarini o‘rganish, ruhiy holatidan boxabar bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.





Shu o‘rinda xizmat jarayonidagi bir holatga qisqacha to‘xtalib o‘tsam. Ya'ni, yaqinda o‘tkazilgan psixologik test natijalari bir xodimda ruhiy zo‘riqish alomatlarini ko‘rsatdi. U bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazilganida uy-joy masalasida muammosi borligi ayon bo‘ldi. Tegishli tartibda vaziyatni o‘rganib, masalaning yechimini topishga harakat qildik. Hozir u xizmat jarayonini risoladagidek davom ettirmoqda. Bu bilan nima demoqchiman, inson shaxsiy hayotidagi ziddiyatlar, ichki olamida kechayotgan ruhiy holatlarni qanchalik yashirmasin, ularni psixologik usullar bilan bilish imkoni bor.

Psixologik ta'minlash guruhi zimmasiga yana bir mas'uliyatli vazifa, ya'ni viloyat ichki ishlar organlariga ishga, 2-sonli Toshkent akademik litseyiga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodlarning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida testlar o‘tkazish yuklatilgan. Bu, o‘z navbatida, ayni paytda xizmatdagi xodimlar, xizmatga kirish istagidagi nomzodlarning shaxsiy va emotsional holatini baholash imkonini beradi.

Sirasini aytganda, ichki ishlar organlari tizimidagi psixologlar faoliyati bu faqat maslahat berish yoki test o‘tkazish emas. Bu yurt tinchligi, osoyishtaligi yo‘lida faoliyat yuritayotgan fidoyilarning ruhiy sog‘lig‘ini saqlash demak. Mazkur yo‘nalishda amaliyotga joriy etilayotgan yangi, zamonaviy usullar tizimda samaradorlik yanada mustahkamlanishining muhim omilidir.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida axborot texnologiyalari (IT) hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Shu bois, ayniqsa, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida ham bu yo‘nalishga alohida e'tibor qaratilayotgani esa biz, pedagoglarni yanada mas'uliyat bilan ishlashga undaydi.

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA

Ichki ishlar vazirligi Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida informatika va axborot texnologiyalari fanidan dars beruvchi o‘qituvchi sifatida shuni ta'kidlashni istardimki, bugungi kunda IT nafaqat alohida fan, balki kelajak kasblarining mustahkam poydevoridir. Dasturlash, algoritmik fikrlash, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shuning uchun dars jarayonlarida an'anaviy yondashuvdan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar – loyiha asosida o‘qitish, interaktiv







metodlar va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin beryapmiz.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Bir million dasturchi» loyihasi yoshlar uchun beqiyos imkoniyatlar yaratdi. Loyiha doirasida yaratilgan onlayn platformalar, bepul kurslar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarimizning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dars jarayonlarida Yevropa ta'lim tajribasidan ham samarali foydalanib kelmoqdaman. Xususan, Finlyandiya va Germaniya ta'lim tizimida qo‘llaniladigan o‘quvchining mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatiga asoslangan «O‘quvchi markazli yondashuv» metodi yuqori natija bermoqda. Bunda o‘quvchilar real hayotga yaqin loyihalar ustida ishlaydi, jamoada muammolarni hal qiladi va ish natijalarini taqdim etadi. Bu ularda nafaqat texnik bilim, balki muloqot madaniyati, liderlik, javobgarlik kabi muhim kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini zamonaviy yondashuv asosida o‘qitish bilimli, yetuk va raqamli savodxon avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Biz, pedagoglar bu yo‘lda bor bilim va tajribamizni safarbar etgan holda, yoshlar kelajagi uchun bo‘lgan mas'uliyatimizni to‘la anglab, sidqidildan faoliyat yuritamiz.

Sohibjamol TUROBOVA,
IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi.



Qudratli qalami bilan turkiy tilli xalqlarning nafaqat badiiy adabiyoti, balki qalb xazinasi va ruhoniy dunyosini yakqalam qilgan, betimsol nazm-u nasri bilan boyitgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish yillar, asrlar o‘tgan sayin yanada ortib bormoqda. Daho ijodkor insoniyatni fikrlashga chorlovchi asarlari bilan adabiyotni, she'riyatni o‘z davrining faol, kurashchan, insonparvar kuchlaridan biriga aylantirdi.

NAVOIY ULUG‘LAGAN INSONLAR

Hazratning fikricha, so‘z san'ati buyuk kuchdir, u «o‘lik tanga pok ruh bag‘ishlay olganidek, tandagi ruhni halok qila oladi». Inson ruhi esa jismoniy nafsga qarshi o‘laroq, ma'naviy mukammallikka intiladi. Shu ma'noda, Navoiy an'anaviy Sharq poeziyasini g‘oyaviy-tematik nuqtayi nazardan tamoman yangiladi. Ulug‘ shoir adabiyotning, poeziyaning ijtimoiy-siyosiy hayotga, inson va uning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlariga yaqin turishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari surdi va o‘zi shu g‘oyaga izchil amal qildi. Shu jihatdan, uning asarlari o‘zi yashab ijod qilgan davr haqida, o‘sha davrning dolzarb hayotiy masalalari haqida o‘quvchida to‘g‘ri tasavvur paydo qiladi, kitobxonni hayot haqidagi yangi fikr va bilimlar bilan boyitadi, turmush haqida chuqur mulohaza yuritishga o‘rgatadi.

Alisher Navoiy o‘z davrining davlat siyosati va jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur bilar, insonlar maishiy turmushidagi muammolarni ham yaxshi

tushunardi. U o‘rta asrlarda Sharqda kechayotgan romantizm sharoitida o‘zini o‘ylantirgan masalalar xususida faqat badiiy so‘z va timsollar vositasida fikr-mulohazalarini bildirishi mumkin edi. Shu bois o‘zining o‘lmas asarlarida nafaqat katta ko‘lamdagi masalalar, balki jamiyat kishisining muammo va qiziqishlari haqida aniq, konseptual, dasturiy xulosalarini ifoda etadi.

Hazrat Navoiyning fikrlariga ko‘ra, jamiyat farovonligi va ma'murligini, uning a'zolari tinchligi, osoyishtaligini ta'minlovchi asosiy omillar mavjud. Bular jamiyatning har bir a'zosida shakllanmog‘i lozim bo‘lgan muhim insoniy fazilatlardir. Zero, fozil shaharlar ahlini fazilatli insonlar tashkil etadi. Shoir ana shunday fazilatli insonlardan bir guruhi – jamiyat tinchligi, yurt osoyishtaligini qo‘riqlab turuvchi fidoyi shaxslar sha'niga iliq so‘zlar aytadi.

Navoiy mashhur alloma Xoja Fazlulloh Abullaysiy as-Samarqandiy madrasasida ikki yil she'riyat va fiqhdan ta'lim oladi. Olim vafot etgach, yirik ma'naviy murshid, naqshbandiya tariqatining peshvosi Xoja Nosuriddin Ubaydulloh Ahrori Vali xonaqohida ma'rifiy suhbatlardan bahramand bo‘ladi. U keyinchalik «Nasoyim ul-muhabbat» asarida bu allomaning «farzandimiz» degan iltifotiga sazovor bo‘lganini yozadi. Pir dargohida Navoiy o‘zi Hirotdaligida orzu qilgan maqsadiga yetadi – naqshbandiya tariqati asoslarini o‘rganadi.

Shoirning Xoja Ahrori Vali bilan yaqin munosabati keyinchalik ham davom etadi. U Hirotga qaytib, yuqori mansabda ishlab turgan paytlari, Xoja Ahrori Vali Abdurahmon Jomiyga xat yozadi. Ushbu maktubda Navoiy Istanbulga yo‘l olgan Ali Qushchi va shogirdlarini mamlakatdan osonlik bilan chiqib ketishiga yordam berishini iltimos qiladi. O‘sha paytda vaziri a'zam lavozimida bo‘lgan Navoiy bu iltimosni sidqidildan ado etadi, olimning



shogirdlari bilan mamlakatdan chiqib ketishi uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni rasmiylashtirishda yordam beradi. Manbalarda Xoja Ahrori Valining Navoiyga murojaat qilib yozgan boshqa maktublari haqida ham ma'lumot bor.

Alisher Navoiy umrining Samarqandda o‘tgan yillarida Sohibqiron Amir Temur va Ulug‘bek Mirzo tomonidan bino qilingan

ulkan inshootlarni – Amir Temur jome' masjidi, Ko‘ksaroy, Bibixonim madrasasi, Ulug‘bek Mirzoning Registonda qurgan madrasai oliya, xonaqoh, masjidi muqatta', karvonsaroy, hammomlari hamda mashhur rasadxonasini, Go‘ri Amir maqbarasini asl holatda ko‘radi, mashhur bog‘larda bo‘ladi. Konigil, Ko‘hak (Cho‘ponota)larda sayr qiladi. Ulug‘bek Mirzoning Samarqanddagi yulduzshunoslik maktabining jahonshumul yutug‘i bo‘lmish «Ziji jadidi Ko‘ragoniy», Ali Qushchi, G‘iyosiddin Jamshid va boshqalarning asarlari bilan yaqindan tanishadi.

Bu davrda Xoja Fazlulloh Abullaysiy o‘z madrasasida faoliyat olib borardi. Ulug‘bek Mirzo otasi Shohrux Mirzo huzuriga Hirotga kelib qaytguniga qadar bu mo''tabar shaxs unga hamrohlik qilgan edi. Rasadxona



ishlab turar, Ali Qushchi boshliq olimlar bu yerda tadqiqotlarini davom ettirayotgandi. Akademik B.Valixo‘jayev fikriga ko‘ra, Navoiy rasadxonada faoliyat yuritib turgan olimlar, xususan, ularning rahbari Ali Qushchi bilan ham albatta uchrashgan, suhbatlashgan bo‘lishi shubhasiz. Uning Samarqanddan olgan bu kabi taassurotlari keyinchalik ijodida muhim o‘rin egalladi. Jumladan, «Xamsa»ning «Farhod va Shirin» dostonidagi ushbu satrlar ulug‘ shoirning hayotiy taassurotlaridan tug‘ilgan samimiy e'tirofdir:

Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
...Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy
Ki andin yozdi «Ziji Ko‘ragoniy».
Qiyomatqa degincha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

Turkiy xalqlar osmonining so‘nmas quyoshi Mir Alisher Navoiy ilmiy asarlar yaratish va badiiy ijodiyot bilangina inson ma'naviy tafakkuri talablarini qoniqtirish mushkul ekanligini angladi. U amaliy faoliyat bilan ham o‘z maqsadiga intildi, mesenant sifatida ilm-fan, madaniyat va san'at ahliga rahbarlik qildi.

Ulug‘ mutafakkir shoirning serqirra ijodi umumbashariy mohiyat kasb etib, insoniyat mulkiga aylandi. Uni chuqur o‘rganish, bu bebaho xazinaga murojaat etish yosh avlod ma'naviyatini boyitadi, ularning zamonasining to‘g‘ri fikrlovchi, ongli va toza vijdonli kishilari sifatida shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Dilorom SALOHIY,
filologiya fanlari doktori,
professor,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

ASHYOVIY DALILLAR TILGA KIRGANDA...

Ba'zan voqea joyida guvoh ham, kuzatuv kamerasi ham bo‘lmaydi. Lekin jinoyatchi baribir o‘zi sezmagan holda «iz» qoldiradi. Ana shu izlarni «gapirtirish» esa ekspert-kriminalistlarning mahoratiga bog‘liq.



Zarafshon shahar IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, katta leytenant Muzraf Eshniyozov daktiloskopiya sohasida, shuningdek, giyohvand moddalar va psixotrop vositalar ustida kimyoviy ekspertiza o‘tkazish vakolatiga ega. Uning ish stolida ba'zan bir qarashda oddiy tuyulgan buyumlar – shisha parchasi, qog‘oz yoki polietilen paket, voqea joyida qoldirilgan birgina barmoq izi muhim dalilga aylanadi.

Yaqinda Zarafshon shahri 19-kichik tumandagi xo‘jalik mollari do‘konida ro‘y bergan o‘g‘rilik holati aynan barmoq izlari orqali fosh etildi. Hodisa joyidan olingan izlar sinchiklab o‘rganilganida, ular sanoqli, boz ustiga, xira ekani ma'lum bo‘ldi. Shunga qaramay, o‘zini uddaburon sanagan o‘g‘ri bir-ikkita barmoq izlarini qoldirgani qo‘l keldi. Muzraf Eshniyozov ushbu barmoq izlarini elektron daktiloskopik tahlillar orqali gumondorlarniki bilan solishtirdi. Hujjatlarni tergovga taqdim etarkan, katta ehtimol bilan bir shaxsning ism-sharifini yozdi.

Eng muhimi, mazkur jinoiy qilmish fosh etilishi ortidan avval ochilmay qolgan yana 5 ta o‘g‘rilik holatiga ham oydinlik kiritildi. Boshqacha aytganda, bitta iz bir nechta jinoyatning ochilishiga sabab bo‘ldi. O‘g‘ri esa muqaddam bir necha bor sudning qora kursisida o‘tirgan, ammo ko‘zi ochilmagan 35 yoshli shaxs ekani oydinlashdi.


Katta leytenant Muzraf Eshniyozov uchun xizmat vazifasi oddiy ish emas, balki katta mas'uliyat. Qolaversa, otasining armonga aylangan orzusining ushalishi ham. Boisi, uning otasi Rahmatilla Toshniyozov jazoni ijro etish muassasalarida xizmat qilgan. Ma'lum oilaviy sharoit tufayli xizmatini davom ettira olmagan. Lavhamiz qahramonining oliy maqsadi shu – sohada sadoqat bilan xizmat qilish, fuqarolarning, oila a'zolarining ishonchini oqlash.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

14-FEVRAL — ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUN

IFTIXOR MAKTABI



Zahiriddin Muhammad Bobur bizning bobomiz, bizning qonimiz, bolalarimizga g‘urur bilan aytadigan buyuk ajdodimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Andijon shahridagi «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi bugungi kunda O‘zbekiston madaniy xaritasida muhim o‘rin tutayotgan ma'rifiy maskandir. Mazkur muzey buyuk davlat arbobi, shoir Zahiriddin Muhammad Bobur nomini abadiylashtirib, uning beqiyos merosini avlodlarga yetkazib kelmoqda. Bu maskanga qadam qo‘ygan inson ulug‘ ajdodimizni buyuk shoh va sarkarda, jahon sivilizatsiyasini boyitgan qomusiy olim sifatida kashf etadi.

Jahon tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Chunki u buyuk imperiya barpo etgan podshohgina emas, balki qalbida she'r, aqlida ilm, ruhida adolat bo‘lgan hukmdor edi.

«Bobur va jahon madaniyati» muzeyidan Bobur xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi safarlari davomida dunyoning turli hududlaridan olib kelingan temuriylar, boburiylar sulolasi tarixiga oid noyob kitoblar, qo‘lyozmalar, miniatyuralar, xaritalar va boshqa turli qimmatli eksponatlar joy olgan. Chunonchi, noyob qo‘lyozmalar, o‘nlab tillardagi nodir kitoblar 40 ga yaqin chet el safarlari davomida yig‘ilgan. Ularning katta qismi allaqachon ilmiy iste'molga kiritilgan: tarjima qilingan, nashr etilgan, ular haqida ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Eronga uyushtirilgan safar davomida qo‘lga kiritilgan «Bobur kulliyoti», Hindistonning Haydarobod shahridagi «Salarjang» muzeyida saqlangan «Boburnoma» nusxasi, Shoh G‘arib Mirzo

(G‘aribiy) devoni, turkiyalik olim Bilol Yujel tomonidan tayyorlangan Bobur Mirzo devoni, «Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi», Xondamirning «Habib us-siyar» tarixiy asari, Muhammad Haydar Mirzoning «Tarixi Rashidiy» va «История Рашиди» kitoblari, Fris Vyurtlening «Andijon shahzodasi», Xarold Lembning «Bobur — yo‘lbars», Gumer Godenning «Gulbadan» asarlari shular jumlasidan.

Muzey eksponatlari sifatida Bobur asarlari, jahon boburshunoslari Eyji Mano, Uiler Tekston, Bilol Yujel, Shafiqa Yorqin, o‘zbek olimlari Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov, Suyima G‘aniyeva, Hasan Qudratillayev, Ansoriddin Ibrohimov, Vahob Rahmonov kitoblari, mashhur tarjimonlar Magda Maxluf, G‘ofurjon Satimov, Ismoil Tekjan, Ramiz Asker, Marisa Komas, Lui Bakye Gramont, Anneta Beverij, Jon Leyden, Rashid Rahmati Arat, Mixail Sale, Yanglish Egamovalarning tarjimalari ham namoyishga qo‘yilgan. Bu yerdagi Bobur yurgan yo‘llar xaritasi, Bobur va Boburiylar shajarasi, Bobur ixtiro qilgan «Xatti Boburiy», Bobur muhri va qilichi, «G‘ijjaki Boburiy» musiqiy asbobi kabi eksponatlar kishini bir necha asrlar ortga – moziyga yetaklaydi. Muzeyda, shuningdek, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi homiyligida qadimgi Farg‘ona davlati poytaxti Ershi (hozirgi Mingtepa) hamda Jalaquduq va Dalvarzintepalarda olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Qolaversa, jamoat fondi tomonidan yaratilgan videofilmlarni tomosha qilishingiz mumkin. Binobarin, bu yerda tarix kitobdan o‘qilibgina qolmasdan, balki ko‘z bilan ham ko‘riladi, qalb bilan his etiladi.

Xullas, «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi o‘zligimizni anglash, buyuk ajdodlarga ehtirom ko‘rsatish, kelajak avlodga iftixor qoldirish maktabidir.

Xolidaxon SHAMSIYEVA,
«Bobur va jahon madaniyati»
muzeyi rahbari.







Ёшлик – сеҳрли олам, жозибали, фусункор, ҳаёт инъом этган бебаҳо туҳфа. Таниқли адиб Нозим Ҳикмат айтганидек: «Ёшлик бу – орзу. Бу – ишонч. Бу – жасоратга интилиш...».

УМРДАН РОЗИЛИК – КАТТА БАХТ

Буюк афсунгар

Агар ёшлик орзуси бўлмаганда инсон ҳаёти бир нуқтада тўхтаб қолган бўларди. Менинг ёшлигим ҳам беғубор орзуларга бой эди.

Урганч туманидаги Ғойбу қишлоғида, деҳқон оиласида туғилиб, вояга етдим. Қишлоқда мол боқиб, деҳқончилик ишларига ёрдам бериш билан бирга, мактабда ҳам яхши ўқирдим. Шу учун мени ва партадош дўстим Матназарни ўқитувчиларимиз доим мақташарди. Мактабда тартиб-интизом жуда қаттиқ эди. Ўқув йилини ёмон баҳолар билан якунлаган ва хулқи қониқарсиз болалар синфдан синфга кўчирилмасди.

Кечагидек ёдимда: бир куни отам сўради:

– Катта бўлсанг ким бўлмоқчисан, ўғлим?

– Полковник бўламан, ота, – дедим мен.

У пайтлари «полковник» унвони ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлмасам-да, кинофильмлар орқали унинг энг катта мансабдаги ички ишлар органлари ходимлари ва ҳарбий хизматчиларга берилишини яхши билардим. Лекин полковник бўлиш учун хизматни оддий сафдорликдан бошлашим керак эди. Шу боис Қуролли Кучлар сафида хизмат қилишга олишларини сўраб ҳарбий комиссариатга ариза ёздим. Мени авиация қисмига маъқул кўришди. Кўп ўтмай, «кичик сержант» унвонини беришди, бир йилдан кейин рота старшинаси этиб тайинландим. Ҳарбий хизматдан старшина унвонида қайтиб келдим. Армия менга тартиб-интизомга риоя қилишни, сабр-тоқат ва шижоатни ўргатди.

Болаликдаги орзуимни амалга ошириш мақсадида 1969 йили вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бўлимига хизматга кирдим. Бир йил ўтгач, «милиция лейтенанти» махсус унвони берилди. Тўқ кўк рангдаги кителим елкасига икки юлдуз қадалган погонларни тақиб уйга борган куним ҳаётимдаги энг қувончли кунлардан бири сифатида қалбимга ўрнашиб қолди.

Муҳим вазифа масъулияти

Мен аввалига катта инспектор, кейинроқ эса бўлим бошлиғининг ўринбосари лавозимида хизмат қилдим. Албатта, эришган натижаларимда генерал-майор Салим Собиров, полковниклар Болтабой Бобожонов, Отабой Искандаров, Раҳимбой Султонов, Валерий Лесних каби устозларимнинг ёрдами катта бўлди.

Табиийки, у пайтларда ходимлар учун яратилган шароитлар ҳозиргидек эмас, қўриқлаш хизмати замонавий технологиялар билан таъминланмаганди. Шунга қарамай, биз хизмат самарадорлигини таъминлай олдик. Ходимларимизнинг саъй-ҳаракати билан қўриқланаётган объектларда, хонадонларда кўплаб ўғриликларнинг олди олиниб, жиноятга қўл урган шахсларга нисбатан тегишли чоралар кўрилишига эришдик.



Бошлиқ лавозимида

1983 йилда Қўриқлаш бўлими бошлиғи этиб тайинландим. Бу менга билдирилган катта ишонч эди.

Мен раҳбар ходим нафақат ақлли, билимли бўлиши, шу билан бирга, у қўл остидаги ходимлар кўнглига йўл топа билиши, уларни ножўя йўллардан, хатти-ҳаракатлардан қайтариш қобилиятига ҳам эга бўлиши керак, деб ўйлардим. Бу фикрим нақадар тўғри эканига раҳбарлик фаолиятим даврида ишонч ҳосил қилдим. Шу боис шахсий таркиб ўртасида соғлом муҳит барқарор бўлишига ҳаракат қилдим. Бўлим соҳаларига раҳбарларни тайинлашда ошна-оғайнигарчилик, таниш-билишчилик каби ҳолатларга йўл қўймадим. Ҳар бир бўлинма, гуруҳ бошлиғи, саф бўлинмалари командирлари учун уларга қўйиладиган талабларни ишлаб чиқиб, амалда татбиқ этдик.

1990 йили менга «полковник» махсус унвони берилди. Ўша пайтдаги ўзимнинг, оила аъзоларим, яқинларим ва дўстларимнинг хурсандчилиги ҳамон кўз ўнгимда гавдаланади. Ахир, болаликдаги орзуим ушалган эди-да...

Бўлимга ўн йилдан ортиқроқ давр мобайнида раҳбарлик қилдим. Ички ишлар органлари тизимида 32 йил хизмат қилиб, 2001 йилда пенсияга чиқдим.

Пенсияга чиққач, қишлоқда деҳқончилик ишлари билан шуғулланиш баробарида, тез-тез ўзим хизмат қилган Қўриқлаш бошқармасига бориб турдим, ёш ходимларга ҳаётий тажрибаларимни гапириб берардим, уларни қасамёдига, Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш ишига ўз ҳиссамни қўшганимдан хурсандман. Ҳозир бироз хасталигим сабабли кўчага кам чиқаман. Ўтган йилларимни эслаб кўп ва хўп шукрона айтаман: «Ватан омон бўлсин!»

Раҳимбой САПАРОВ,
истеъфодаги полковник.

Хоразм вилояти.

СЛУЖБА КАК ПРИЗВАНИЕ

Жизнь столичных дорог представляет собой непрекращающийся поток автомобилей, спешащих пешеходов, велосипедистов и бесшумных электросамокатов, маневрирующих в городском пространстве. Такой динамичный ритм превращает улицы в живой, постоянно пульсирующий организм. В этом сложном механизме есть люди, чья задача – быть гарантом безопасности и порядка. Один из них рядовой Дилмурод Маннонов, инспектор ДПС 2-й мобильной группы 5-го батальона УБДД ГУВД города Ташкента.

Родом Д. Маннонов из Иштыханского района Самаркандской области. После школы он выбрал техническое направление, поступив в Ташкентский автомобильно-дорожный институт (ныне – Ташкентский государственный транспортный университет). Знания, полученные в одном из ведущих профильных вузов республики, стали фундаментом для его будущей профессиональной деятельности.

После срочной службы герой очерка некоторое время преподавал в колледже. Однако внутреннее желание служить закону привело его в органы внутренних дел. В 2018 году он начал путь рядовым сотрудником в Управлении охраны, а в 2020-м был переведен в подразделение дорожно-патрульной службы.

«В становлении любого специалиста велика роль наставника», – уверен Дилмурод. Свое мастерство он оттачивал под руководством ныне майора в отставке Вали Тоштанова, который щедро делился опытом.

Служба в ДПС – это не просто дежурство на дороге, а сложная деятельность, основанная на железной самодисциплине и высокой ответственности.

– Наша работа предполагает предельную концентрацию: движение в столице сегодня чрезвычайно интенсивное. Цель – обеспечивать безопасность участников дорожного движения, контролировать соблюдение ПДД, оперативно реагировать на изменения дорожной обстановки и экстремальные ситуации, – говорит наш собеседник.

Сегодня на помощь инспекторам приходят высокие технологии. Патрульная машина рядового Д. Маннонова – автомобиль Gentra, оснащенный современной системой мониторинга и связи. Городская система видеонаблюдения

способна распознавать и фиксировать нарушения в режиме реального времени. Интеграция этих систем формирует единое цифровое пространство, что позволяет кратно повысить эффективность контроля.

Следуя букве закона и регламентам, инспектор всегда помнит о культуре общения. Вежливо представиться, назвать причину остановки, предъявить удостоверение по первому требованию – это не просто пункты инструкции, а основа доверия между гражданином и государством...

Источник сил в череде суровых будней для Дилмурода – тепло родного дома. Здесь, вместе с супругой Махбубой, они растят сына Кувончбека. Желание отца – видеть его достойным человеком, передав качества, которыми обладает сам: честность, выдержку и верность призванию.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.





TERGOVCHI MUNOSABAT BILDIRADI

KORRUPSIYAGA QARSHI IMMUNITET

BU ILLATNING ENG SAMARALI DAVOSIDIR

... 2024-yil yoz oylarida Xovos tumani hokimining o‘rinbosari qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonaga yer va suv masalasida “ko‘mak berish” evaziga 20 ming AQSH dollari miqdorida pora so‘raydi. Huquq-tartibot organlarining birgalikda olib borgan tezkor tadbiri natijasida mansabdor shaxs o‘zi talab qilgan pullardan bir qismi – 1000 AQSH dollarini olgan vaqtida qo‘lga olinadi. Sud hukmiga binoan ushbu shaxsga yetti yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Afsuski, mazkur holat jamiyatdagi korrupsiyaviy jinoyatlarga oid ko‘plab misollarning bittasi, xolos.

Jiddiy xavf, jiddiy kurash

Keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha sa'y-harakatlar kuchaydi. Qonunchilik, ma'muriy boshqaruv reglamenti tegishincha o‘zgartirildi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali mansabni suiiste'mol qilish mexanizmlari cheklandi. Bunda inson omilini sezilarli ravishda kamaytirishga muvaffaq bo‘lindi. Xususan, bugun har bir shaxs kadastr, soliq, migratsiya kabi o‘nlab sohalardagi xizmatlardan uydan chiqmasdan turib, onlayn foydalanishi mumkin. E'tiborlisi, bunday onlayn xizmatlar nafaqat tez, oson ishni bitirish, balki bu borada ilgari mavjud bo‘lgan ko‘plab korrupsiyaviy jinoyatlarni, ma'muriy to‘siqlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Lekin, shunga qaramay, eng qadimiy korrupsiya illati eng yashovchan, tusini va shaklini tezda o‘zgartira oladigan bo‘lib chiqdi. Afsuski, shu turdagi jinoyatlar tez-tez uchrab turibdi.

Tanishini uyli qilmoqchi edi

Mahalla raisi katta odam. «Mahallaning otasi» degan nomi bor. Ko‘pchilik hurmat bilan salom beradi. Ammo hamma mahalla raislari ham hurmatga sazovor bo‘lavermas ekan. Xususan, Guliston shahridagi mahallalardan birining raisi yaxshigina «ichimdan top» chiqib qoldi.

Gap shundaki, ko‘p qavatli uylardagi



xonadonlardan birida yolg‘iz yashaydigan qariya u dunyoga rihlat qiladi. Mahalla raisi vaziyatni qo‘lga olib, egasiz qolgan uy-joyni o‘zlashtirmoqchi bo‘ladi. U o‘ziga tanish shaxsga shu xonadonni rasmiylashtirib berish evaziga 10 ming AQSH dollari so‘raydi. Buning uchun hokimiyatda ishlovchi tanishlarini ishga solishini aytadi.

Mahalla raisining «operatsiya»si amalga oshirilishiga ichki ishlar organlari xodimlari xalaqit berdi. O‘tkazilgan tezkor tadbir natijasida u 10 ming dollarni ta'magirlik yo‘li bilan olayotgan vaqtida ushlandi. Uy-joy esa qonuniy merosxo‘rlariga o‘tkazib beriladigan bo‘ldi.

Ruxsat berish evaziga

2025-yil 7-yanvar. Sirdaryo tumani qurilish, uy-joy kommunal xizmat bo‘limi rahbari bo‘lib ishlagan shaxsga my.gov.uz orqali shu tumanda yashovchi shaxsdan ariza kelib tushadi. Arizada tumanning «Navro‘z» mahallasi Guliston ko‘chasidagi 6 sotix yer maydonida qurilgan to‘rt xonali uy-joyni foydalanishga topshirish uchun ruxsat berish so‘ralgan edi.

Mansabdor shaxs obyektga ruxsat berishga shoshilmaydi. Rost-da, qurilish ekologik, xavfsizlik talablari darajasidami, zamonaviy arxitektura standartlariga javob beradimi, degan savollarga javob topilishi zarur. Oqilona! Biroq bunday talablar xolis niyat, xizmat vazifasiga sodiqlik asosida qo‘yilsa-ku, xo‘p-xo‘p, aksincha, ishga tamagirlik asosida mo‘maygina pul ishlab olish maqsadida yondashilsa, urdi Xudo deyavering. Mansabdor shaxs xuddi shu yo‘ldan ketdi. U qurilish ishlari talab darajasida olib borilgan deb topishi uchun arizachidan 3 million so‘m pul talab qildi. Tezkor tadbirda u talab qilingan pulning 1 million 500 ming so‘mini pora sifatida olayotgan vaqtida qo‘lga tushdi.

«70 ball kerakmi?..»

Ma'lumki, viloyatimiz tuman-shaharlarida texnikumlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Texnikumni yuqori ko‘rsatkichlar bilan bitirgan yoshlar oliy ta'lim muassasalariga test sinovlarisiz qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni kasb-hunarni chuqur egallashga, yuqori bilim egasi bo‘lishiga rag‘batlantirish maqsadida belgilangan bu imtiyozdan, afsuski, hamma vaqt ham intiluvchan, bilimdon yoshlar foydalanmagan. Tibbiyot, qurilish va kasb-hunarga yo‘naltirilgan ayrim o‘rta maxsus ta'lim muassasalarida ustomon shaxslar bunday imtiyozni pulga aylantirish bo‘yicha sxema ishlab chiqishgani ma'lum bo‘ldi. Belgilangan tartibga binoan, texnikumda o‘qiydigan o‘quvchilar oliy o‘quv yurtiga imtihonsiz kirish uchun 70 ball yig‘ishlari zarur. Surishtiruvlar bunday imtiyozni berish uchun ayrim mansabdor shaxslar o‘quvchilardan 1500–2000 AQSH dollari miqdorida pul talab qilgani ma'lum bo‘ldi. Tezkor tadbirlar, o‘tkazilgan tergov-surishtiruvlar natijasida 35 ta ana shunday holat fosh etildi.

Qalbaki haydovchilik guvohnomalari

Haydovchilik guvohnomalari berilishining shaffoflashtirilishi, yo‘l harakati qoidalarini, avtomobil boshqarishni puxta o‘zlashtirgan shaxslargina ana shunday hujjatni qo‘lga kiritayotgani fuqarolar oldida halollik va adolatning qaddini ko‘tardi. Yo‘llarda turli fojialarning odini olish, korrupsiya va poraxo‘rlikning ildizini quritishga qaratilgan ushbu hayotbaxsh choralarni ko‘pchilik xayrixohlik bilan qo‘llab-quvvatladi. Lekin ayrim shaxslar, jumladan, davlat xizmatlari markazlarida ishlaydigan mansabdorlar qalbaki QR kodlar vositasida soxta guvohnomalar tayyorlab berishgani aniqlandi.

Ma'lum bo‘lishicha, jinoiy guruh 500–1000 AQSh dollari evaziga eski turdagi haydovchilik guvohnomasini qo‘lbola usulda tayyorlagan. Soxtalashtirishning ikkinchi bosqichida ayrim tuman davlat xizmatlari markazlari xodimlariga ushbu qalbaki haydovchilik guvohnomalari topshirilgan. Albatta, ma'lum pora evaziga hujjatlar yangi turdagi guvohnomalarga almashtirilgan.

Ikkinchi usulda ma'lum miqdordagi pul evaziga fuqarolarning haydovchilik guvohnomasi mavjud bo‘lgani to‘g‘risida hududiy YHXB nomidan soxta ma'lumotnomalar berilgan. Soxta QR kodli imzolar qo‘yilgan ma'lumotnomalar Davlat xizmatlari markazi xodimiga taqdim etilgan. U esa pora evaziga yangi turdagi haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirgan. Umuman respublika miqyosida 2025-yilda 1200 dan ortiq, Sirdaryo viloyatida 20 ta mana shunday holat aniqlangan.

Xulosa o‘rnida

Korrupsiya – illat. U jamiyat taraqqiyoti, yurt ravnaqiga raxna soladi. Ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Fuqarolarda ertangi kunga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi. Bu illatning eng ishonchli davosi yurtdoshlarimizda tamagirlik va poraxo‘rlikka nisbatan immunitet hosil qilish, toqatsizlikni kuchaytirishdir. Biz, huquq-tartibot idoralari, xususan, ichki ishlar organlari xodimlari bu borada kamarbasta bo‘lishga tayyor.

Muhammadkarim QODIROV,
Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi
Tergov boshqarmasi katta
tergovchisi, kapitan.

SAN'AT GO'ZALLIKDIR

go'zallik bor joyda yovuzlik bo'lmaydi



Suhbatdoshimiz – Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti professori, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ortiqali Qozoqov.

– Har bir ijodkorning bolalik olamida kelajagini ta'minlovchi omillar bo'ladi...

– Albatta, ijodkorning kamolotida oilaning, ota-onaning o'rni beqiyos. Bolaning iqtidori barvaqt aniqlansa, uning kelajagi uchun muhim qadam qo'yilgan bo'ladi. Otam oddiy duradgor bo'lsa-da, san'atga juda qiziqqan, ayniqsa, naqqoshlikni puxta egallagan, shu sabab ham biz, farzandlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, qalbimizda katta maqsadlarni uyg'ota olgan. Juda kichikligimda qo'limga ilk bora mo'yqalam tutganimdayoq otam mendagi iste'dodni payqab yetgan. Maktabga qatnab, xat-savodim chiqqach, otam kitob do'konidan rus rassomlari Ivan Shishkin, Karl Bryulovlarning plakatda chop etilgan asarlarini sotib olib kelib, uyimiz devoriga ilib qo'ygandi. Men bu suratlarga uzoq vaqt tikilib, shunchaki fotoapparatda olingan deb o'ylardim. Keyinchalik bu noyob san'at asarlari rassomlarning ijodiy ishi ekanini bilgach, menda ular kabi katta ijodkor bo'lish orzusi uyg'ondi.

Moybo'yoqda tabiat manzaralarini chizib, ota-onamni xursand qilganlarim hamon yodimda. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tamomlab qishloqqa qaytganimda, otam men uchun ustaxona qurib bergandi.

Onamning ham bizga o'zgacha mehr va ishonch bilan qaraganlari, har bir chizgan suratimga boqib faxrlanishlarini o'ylab, muvaffaqiyatlarim poydevorida oilaviy muhit, farzandga e'tiborning o'rni katta deb bilaman.

– Asarlaringizda Sirdaryo sohilida joylashgan, bog'-u rog'larga burkangan go'zal Sang qishlog'ining manzaralari, tanti va mehnatkash odamlarining suratlariga ko'p duch kelamiz. Sangda ochilgan badiiy galereyani tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ifodasi deyish mumkin...

– Har bir ijodkorning tug'ilib o'sgan maskaniga mehri o'zgacha bo'ladi. Chindan ham, Sang qishlog'ida ochilgan tasviriy san'at asarlari galereyasi qishlog'imga, qishloqdoshlarimga mening tuhfamdir.

Galereya yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yaxshi asarlarni ko'rsatish bilan birga, tafakkurini

oshirish maqsadida tashkil etilgan.

Har gal qishloqqa borganimda yosh rassomlar bilan uchrashaman, fikr almashaman, mahorat darslari tashkil qilaman. Bahor faslida galereyada an'anaviy «Kamoliddin Behzod izdoshlari» tanlovini o'tkazaman. Bu tanlov ko'plab yosh iste'dod egalarini aniqlashga xizmat qilmoqda.

– Siz uchun qaysi janrda ijod qilish zavqliroq?

– Asosan avangard yo'nalishida surat chizsam ham, ijodimda portret, natyurmortlar, manzara janridagi asarlar alohida o'rin tutadi.

Ijodkor tabiatni, ranglarni o'rganadi, falsafiy mushohadalar izlaydi, tajribalar o'tkazadi. Ana shu jarayonda rassomning salohiyatini rivojlantirishda xayolot kengliklari uning uchun yanada katta yo'lni ochib beradi.

– Xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan asarlaringiz, umuman, chet eldagi muxlislaringiz borasida fikringiz.

– Xalqaro ko'rgazmalarim Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gresiya, Misr, Yaponiya kabi davlatlarda namoyish etilgan. Shuni ta'kidlashni istardimki, ko'rgazmalarda asosan muxlislarning e'tiborini falsafiy asarlar bilan birga, o'zbekona urf-odatlar, qadriyatlar haqidagi suratlar, ranglardagi yorqinlik tortadi. Ko'hna tarixdan so'zlovchi suratlar ularni o'ziga maftun etadi.

– Musavvir sifatida shakllanishingizda adabiyotning o'rni qanday? Kimlarning asarlarini sevib o'qiysiz?

– Rassom bo'lishimda adabiyot, ayniqsa, she'riyatning ta'siri katta. Do'stlarim orasida ham yozuvchi, shoirlar ko'p. Mutolaa hayotimning uzviy bir bo'lagiga aylangan. Ko'plab adiblarning kitoblari muqovasi uchun suratlar chizganman. «Sharq yulduzi», «Yoshlik» jurnallari ijodimda muhim o'rin tutadi. Jahon adabiyoti vakillari, o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlarini doimiy ravishda sevib o'qiyman.

Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov, adiblar Pirimqul Qodirov, Erkin A'zam bilan ijodiy hamkorlik qilganman. Taniqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov asarlari ta'sirida turkum suratlar yaratganman. «Turksoy» xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti tomonidan Abay, O'ljas Sulaymonga bag'ishlab chop etilgan kitoblarga asarlarim kiritilgan.

– Taniqli rassomlarning asarlari chuqur falsafiy ma'nolarga ega bo'ladi. Ularni tushunish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

–Tomoshabin rassomning asariga baho berishni bolalikdan o'zida shakllantirgan bo'lishi kerak. Buning uchun ko'p o'qishi, izlanishi, rassomlarning asarlari bilan doimiy ravishda tanishib borishi lozim. San'at bilan oshno bo'lish bolaning badiiy didi shakllanishiga xizmat qiladi.

Afsuski, hozir san'atdan yiroqlashish kuzatilmoqda. Avvallari har bir xonadon shiftlari, darvoza va romlari peshtoqida naqshlar bo'lardi, devorlarga so'zanalar, palaklar ilinardi, momolarimiz sochiqlarga tikkan naqshinkor suratlar unutilib bormoqda. Bunday noyob san'at asarlari muzeylar, ko'rgazmalar zallarida qoldi, xolos.

– Ijodkor sifatida bugun sizni nimalar bezovta qiladi?

– Meni axborot asrida inson hislarining yo'qolib borishi, odamlarning ko'p narsalarga sovuqqonligi va hayratlanmasligi tashvishlantirmoqda. Sun'iy aql hatto tasviriy san'at sohasiga ham kirib kelib, yengilliklar, qulayliklar ortdi. Lekin, baribir, inson aql-u tafakkuri bilan yaratilgan asarning qiymati boshqacha.

Axir, bir suratni chizish uchun, xayolot dunyosida ifodalamoqchi bo'lgan tasvirni izlashda uyqusiz tunlar, qattiq mehnat, matonat sarf etiladi. Endilikda ana shu jarayonning «sun'iy aql» bilan bir necha soniyalarda amalga oshirilayotgani tomoshabinni o'ziga bog'lab qo'yayotganidan tashvishlanaman. Bu hissiyotlarni o'tmaslashtiradi.



«Sun'iy aql»ni kerakli joyda ishlatish muhim.

Har yili bahorda Xitoyning Tayvan shahrida o‘tkaziladigan xalqaro festivalda yetti marta ishtirok etgan bo‘lsam, besh marotaba Gran pri sohibi bo‘lganman. Nashr etiladigan albom muqovasida to‘rt marta asarim chop qilindi. 2031-yilgacha Soy Moy xalqaro san'at assotsiatsiyasining O‘zbekistondagi elchisi sifatida e'tirof etilganman. Bunday baholar, e'tiroflar menga ilhom beradi.

Olis yurtlarda ko‘rgazmam tashkil qilingani, Buyuk Britaniya qiroli Karl III ga, Singapur prezidenti Halima Yoqubga asarlarim taqdim etilgani, Misrdagi muzeydan, Kiprdagi zamonaviy modern muzeyidan, Qirg‘iziston milliy muzeyidan asarlarim o‘rin olganidan quvonaman.

– Har bir insonning jamiyat oldidagi eng katta vazifasi namunali ota-ona sifatida farzandlariga yaxshi tarbiya berish hisoblanadi. Farzandlaringiz haqida ham gapirib bersangiz.

– Qizim dizayn-rassom, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutini tamomlab, yoshlarga saboq berib kelmoqda. O‘g‘lim moliya sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, Shvetsiyada magistraturani tamomlagan, xalqaro toifadagi moliya menejmenti. Nabiralarim ham zukko. Firdavs sport sohasini tanladi. Muhsina ingliz tili yo‘nalishida yetuk mutaxassis. Muhammad taekvondo bo‘yicha qora belbog‘ sohibi. Yasmina va Safina hali boshlang‘ich sinfda o‘qiydi. Ularning barchasi tasviriy san'atdan xabardor.

Turmush o‘rtog‘im Guli Nigor O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, bir necha kitoblar muallifi, taniqli shoira. «Kuzgi yaproqlar simfoniyasi» kitobi yaqinda bosmadan chiqdi. Biz ota-ona, bobo va buvi sifatida farzandlarimiz va nabiralarimizning o‘qishi, muvaffaqiyatlarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bera oldik, deb o‘ylayman.

– Ayni paytda nima bilan mashg‘ulsiz, kelajakdagi rejalaringiz qanday?

– Buyuk ipak yo‘li mavzusida qariyb 20 yildan beri asarlar yaratib kelyapman. Ularning har birida bugungi kunimiz va tariximizni zamonaviy uslubda aks ettirganim ko‘pchilikka manzur bo‘lmoqda. O‘tgan yili Ikuo Xiroyama madaniyat karvonsaroyida «Ipak yo‘llarida mo‘yqalam bilan» mavzusida shaxsiy ko‘rgazmam bo‘lib o‘tdi. Unda Buyuk ipak yo‘liga bag‘ishlab yaratgan asarlarim namoyish qilindi.

Dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlariga sayohat qilganman. Bir necha yillik sayohatlarim jamlanmasi bo‘lgan ushbu ko‘rgazmadagi har bir asar o‘ziga xos tarixga ega. Taniqli san'at arboblari, shoir va yozuvchilar, jurnalistlar, keng jamoatchilik vakillari ko‘rgazma haqida o‘zlarining ijobiy fikrlarini bildirdilar. Shuningdek, «Mo‘yqalam bilan sayohat» nomli kitobim taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Bu kitob 1983–2025-yillar oralig‘idagi sayohatlarim davomida yaratgan asarlarim va ularning yaratilish tarixi haqida hikoya qiladi. Kelgusi rejalarimiz ko‘p. Ularni amalga oshirish uchun astoydil harakatdamiz.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA suhbatlashdi.

Tuman IIOFMBda

OSOYISHTALIK OMILLARI

Poytaxtimizning chekka hududlaridan biri bo‘lgan Uchtepa tumanida jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tuman IIOFMB tomonidan amalga oshirilgan manzilli profilaktik tadbirlar samarasi o‘laroq, qayd etilgan jami jinoyatlar tarkibida jamiyat uchun xavfli bo‘lgan inson hayotiga tajovuz, talonchilik, yo‘l-transport hodisalari, o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazish kabi holatlar kamayishiga erishildi. Muhimi, joriy yilda ham ana shunday tizimli chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.



Sergak nigohlar va raqamli nazorat

«Guzar» mahallasi nafaqat hududiy jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy dinamikasi bilan ham tumanning eng murakkab nuqtalaridan biri sanaladi. Bu yerda hayot bir soniya bo‘lsa-da to‘xtamaydi. Xususan, «Farhod» bozori, avtomobil ehtiyot qismlari savdo majmuasi, Jahon tillari universiteti va uning yuzlab talabalari istiqomat qiladigan yotoqxonalari mahalla faollari, profilaktika inspektorlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. 7200 nafardan ortiq aholi va kunlik minglab kelib-ketuvchilar oqimi mavjud bo‘lgan hududda osoyishtalikni saqlash zargarona mahorat talab qiladi.

Mahalla faollarining hamjihatligi hududning «sariq» toifadan «yashil»ga o‘tishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Mahalla raisi Saidjon Berdiyev boshchiligidagi mahalla yettiligi – hokim yordamchisidan tortib ijtimoiy xodimgacha – yagona zanjir bo‘lib ishlamoqda. Ularning asosiy maqsadi jinoyatning oqibati bilan kurashish emas, balki uni keltirib chiqaruvchi omillarini to‘la bartaraf etishdir.







Profilaktika inspektori, katta leytenant Elyor Ernazarovning kundalik faoliyati hududdagi har bir obyektni – bozorlardan ta'lim muassasalarigacha to‘liq nazoratga olishga qaratilgan. Mahallaning deyarli har bir qarichi zamonaviy videokuzatuv moslamalari bilan qamrab olingani «Guzar»da huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlashda muhim texnik qalqon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tajriba va shijoat uyg‘un bo‘lsa...

Ijobiy natijalarga erishilishida tuman IIOFMBning ko‘p yillik tajribaga ega xodimlari hissasi katta bo‘layotir. 28 yildan beri xizmat qilib kelayotgan boshqarma tezkor boshqaruv markazi navbatchilik qismi haydovchisi, katta serjant Shuhrat Nosirxo‘jayev tergov-tezkor guruhining tezkorligini ta'minlash uchun hamon safda. Uning haydovchi sifatidagi mahorati, hududni mukammal bilishi natijasida ko‘plab jinoyatlar «issiq izida» ochilmoqda. Yaqinda tumandagi mehmonxonalardan birida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyati tergov-tezkor guruhining o‘z vaqtida voqea joyiga yetib borishi va xodimlarning yuksak kasbiy salohiyati evaziga fosh etildi.

Ustoz-murabbiylar maktabini o‘tayotgan umidli yosh xodimlardan biri – tergovchi, leytenant Xurshid Hasanovdir. U o‘z faoliyatida nafaqat jinoyatni qonun doirasida tergov qilish, balki insonlar taqdiriga mas'uliyat bilan yondashishni ham maqsad qilgan.







leytenant Bektilla Mahkamovning sa'y-harakatlari tufayli bu yerda o‘ziga xos «xavfsiz muhit» zanjiri yaratilgan. Natijada o‘tgan – 2025-yil davomida maktab hududida va o‘quvchilar ishtirokida birorta ham huquqbuzarlik yoki jinoyat qayd etilmadi.

Muvaffaqiyatning asosiy omili «Oila – mahalla – maktab» tizimining izchil yo‘lga qo‘yilganida. Shu bilan birga, 2400 nafarga yaqin o‘g‘il-qiz tahsil olayotgan ta'lim maskanida o‘quvchilarning ichki dunyosiga kirib borish va qiziqishlarini yo‘naltirish eng asosiy vazifaga aylangan. Katta leytenant B.Mahkamov ichki ro‘yxatda turuvchi 11 nafar o‘quvchi bilan muntazam profilaktik suhbatlar o‘tkazib, ularning davomati va tartib-intizomini kundalik nazoratga olgan. Ota-onalar va mahalla faollari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ijtimoiy-psixologik tadbirlar ham o‘zining ijobiy natijasini bermoqda.

Leytenant Xurshid Hasanov yil boshidan buyon 4 ta holatda yarashuv institutini muvaffaqiyatli qo‘llab, nizolashgan taraflarni kelishtirishga va oilalar mustahkamligini saqlab qolishga erishgani ahamiyatga molik.

Oila – mahalla – maktab hamkorligi


Alixonto‘ra Sog‘uniy nomli mahallada joylashgan 296-umumta'lim maktabi hududdagi namunali ta'lim maskanlaridan biri. Maktabga biriktirilgan tuman IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologi, katta

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

WHEN PHYSICAL EVIDENCE SPEAKS...

Senior lieutenant Muzraf Eshniyozov, a senior expert in the Forensics Group of the Zarafshan City Department of internal affairs, demonstrates that solving a crime requires exceptional skill and precision. Specializing in dactyloscopy and chemical analysis, Eshniyozov recently cracked a commercial burglary case by meticulously examining faint fingerprints left at the scene. Through electronic dactyloscopic analysis, he was able to identify a 35-year-old repeat offender, a breakthrough that ultimately led to the resolution of five other previously unsolved thefts. For Eshniyozov, this profession is a



profound responsibility and the fulfillment of his father's legacy. By making «silent» evidence speak, he remains dedicated to ensuring justice and upholding the trust of the citizens he serves.

ON THE PATH OF KINDNESS



The service of private Gulruh Mirsaidova, a Patrol and Post service (PPS) inspector of the Samarkand Regional Department of internal affairs, is a prime example of humanity and high responsibility in ensuring public safety. As a member of the «Ezgulik Patruli» (Kindness Patrol) special group, she does more than just maintain order at public events; she considers it her duty to assist the elderly, reunite lost children with their families, and provide sincere help to citizens. At the core of Gulruh's dedication and courage lie a profound love for her Motherland and a sense of pride in her profession. Her impactful service – such as finding a lost 6-year-old boy and safely returning him to his grandfather – strengthens public trust in internal affairs officers. Recently honored with a Letter of Appreciation from the regional governor on the occasion of Defenders of the Motherland Day, devoted officers like Gulruh Mirsaidova serve as the solid foundation of peace and tranquility in our country.

Sudning qora kursisida o‘tirib, qilmishidan pushaymon bo‘lib, yuzlarini yashirib yig‘layotgan Zarofat (voqea ishtirokchilarining ismlari o‘zgartirildi)ning va'dalari chinmikan, deging keladi. Chunki u avval ham o‘g‘rilik jinoyati sodir etgani tufayli bir necha marotaba sudlangan. O‘shanda ham jinoyatga qayta qo‘l urmaslikka va'da bergandi. Ammo shaxsiy kafillik asosida sinov muddatida bo‘lgan Zarofat yana nafsining quliga aylandi.



ILLAT ODATGA AYLANSA...

...O‘sha kuni Jamila tun yarmigacha uy ishlari bilan kuymalanib, vaqt allamahal bo‘lganini sezmay ham qoldi. Oshxonadagi ishlarini tugatib, qizlaridan xabar olish maqsadida ularning xonasiga kirdi. Shirin uyquda orom olayotgan farzandlaridan birining yuzidan, boshqasining peshonasidan astagina o‘pdi-da, xona chirog‘ini o‘chirib chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Lekin mehri jo‘shib ketib, qizlarining yoniga cho‘zildi. Charchagani sezildi, chog‘i, ana turaman, mana turaman deb ko‘ziga uyqu inib, o‘sha yerda uxlab qoldi.


Ertalab turmush o‘rtog‘i xotini va bolalarini uyg‘otishga ko‘zi qiymay, o‘zi yengilgina nonushta qildi-da, ishga otlandi. Eshikni qulflay desa, kalit bitta. «Hozir birortasi turib qolar, tepa qavatga ertalabdan kim ham chiqardi», deya eshikni qulflamay chiqib ketdi.

Oradan ancha vaqt o‘tgach, qo‘shni xonadonda yashovchi ayol uyidan chiqib keta turib, Jamilaning eshigi lang ochiq turganini ko‘rdi. Ichkariga nazar solsa, hech kimning ovozi eshitilmadi. Xavotirlangancha eshikni taqillatib, qo‘shnisini chaqirdi:

– Eshigingiz ochiq qolganmi, deyman, tinchmisizlar?!

Bu gaplar Jamilaning qulog‘iga o‘qdek kirdi, otilib qo‘shnisining oldiga chiqdi.

– Mizg‘ib qolibsizmi? Eshigingiz ochiq ekan, narsalaringizning hammasi joyidami? Har ehtimolga qarshi, bir qarab qo‘ying, qo‘shni, – dedi xola.



Jamila shoshib yotoqxonasiga kirdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, toshoynasining usti ag‘dar-to‘ntar bo‘lib yotar, tortmasi ochiq holda turardi. Darhol tilla taqinchoqlarini qidirdi, afsuski, birortasi ham yo‘q edi. Shaxt bilan kiyim javonini ochdi, u yerdagi sumkada ham pullar va qimmatbaho narsalar bor edi. Afsuski, ular ham joyida yo‘q.

– Tamom bo‘ldim, xola! Uyimizni tunashibdi! – deb yig‘lashga tushdi Jamila.

Qo‘shni ayol darhol qo‘lidagi uyali telefonni Jamilaga tutqazib, turmush o‘rtog‘iga qo‘ng‘iroq qilishini aytdi...

Sud majlisida Zarofat aybiga qisman iqrorlik bildirarkan, o‘zini oqlashga harakat qilib:

– O‘g‘lim bronxit kasaliga chalingan. Uning dori-darmoniga pul topish ilinjida erta tongdan tilanchilik qilish uchun ko‘chaga chiqdim, – dedi. – Shu yerdagi uylarni aylandim, odamlardan saxovat qilishlarini so‘radim. Ko‘p qavatli uyning yuqori qavatidagi xonadonlardan birining eshigini taqillatdim, javob bo‘lmadi. Eshikni tortib ko‘rgandim, qulflanmagan ekan. Ichkariga mo‘ralasam, jim-jit. Keyin asta uyga kirdim-da, nochorlikdan, bilib-bilmay shu ishga qo‘l urdim.

Sud Zarofatning harakatlariga huquqiy baho berdi: uning retsidiv holati va uyga g‘ayriqonuniy ravishda kirib, o‘zganing mulkini o‘g‘irlashi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan malakalandi. Shu bilan birga, sud uning voyaga yetmagan farzandlari borligini inobatga olib, jazoning ozodlikdan mahrum qilish qismini farzand uch yoshga to‘lgunga qadar kechiktirishga qaror qildi.

Qo‘llari beshik tebratgan, tillari alla aytib, Yaratganning farzanddek ulug‘ ne'matini bag‘riga bosib ulg‘aytirgan ayolning qayta-qayta jinoyatga qo‘l urishiga sabab nima, deb o‘ylanib qolasan kishi. Har bir ayol – bir dunyo. U o‘z farzandlari orqali millat tarbiyachisidir. Jismi, ruhi va qalbi shifoga muhtoj ayol xuddi shunday qusurlarga ega farzandni o‘stirishi mumkinligi barchamizning qalb og‘rig‘imiz emasmi?

Albatta, har bir inson o‘z taqdirining bosh qahramoni. Lekin bir osmon ostida, bir zamin ustida yashar ekanmiz, yonimizdagi inson taqdiri, kelajagi uchun ham o‘zimizni daxldor deb bilishimiz lozim. Negaki, ogohlik va qalb uyg‘oqligi jamiyatda ildiz otayotgan illatlarning ildizini qirqadi.

Muso YUSUPOV,
jinoyat ishlari bo‘yicha
Toshkent shahar sudining
sudyasi.
Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

XIZMAT ITLARI KO‘MAGIDA



Namangan viloyatida jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarni fosh etish va xavfsizlikni ta'minlashda viloyat IIB JTSB Kinologiya bo‘linmasining o‘rni beqiyos. Bugungi kunda bo‘linma xodimlari mavjud zotdor xizmat itlari yordamida, ayniqsa, jinoyatlarni «issiq izida» ochishda salmoqli natijalarga erishmoqdalar.

– O‘tgan yili xodimlarimiz maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xizmat itlari bilan birga 822 marta voqea joyiga chiqib, 212 ta jinoyatni fosh etishga katta hissa qo‘shishdi, – deydi bo‘linma boshlig‘i, kapitan Jasur Bekmirzayev. – Shuningdek, xizmat itlarimiz iz-qidiruv ishlarida, portlovchi moddalarni aniqlash va giyohvand moddalarni topishda faol qatnashayotgani ham diqqatga molik.





Safdor Bunyod Anorboyev kinologiya bo‘linmasining tajribali, fidoyi yo‘riqchi-kinologlaridan biri. Unga «Adel» laqabli xizmat iti biriktirilgan. Xizmat itlarining qobiliyati doimiy mashg‘ulotlar va yaxshi parvarish bilan yuzaga chiqishidan boxabar safdor «Adel»ning o‘z yo‘nalishida tayyorligini ta'minlash asnosida, jumladan, mashq jarayonlarida uning reaksiyalarini kuzatib, muammolarini aniqlash va tezkor hal qilish choralarini ko‘radi. Buning natijasida «Adel» har qanday vaziyatda barcha buyruqlarni samarali va ishonchli bajaradi.

Darvoqe, safdor B.Anorboyev yaqinda «Adel» bilan birga bir jinoyatni fosh etishga muvaffaq bo‘ldi. Ya'ni, «Namangan» YPX maskanida fuqaro B.D.ga tegishli avtomashina ko‘zdan kechirilganida, uning yukxonasida ma'lum miqdordagi gashish giyohvandlik moddasi borligi aniqlandi. Giyohvandlik moddasini yashirin ravishda olib o‘tishga uringan fuqaro endi bu qilmishi uchun qonun oldida javob beradi.

Ta'kidlash lozimki, xizmat itlari nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki ularning oldini olishda ham ahamiyatli rol o‘ynaydi. Buning uchun itlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi. Ayni vaqtda viloyat IIB JTSB Kinologiya bo‘linmasida 25 ta iz-qidiruv, 15 ta giyohvand moddalarni aniqlash va 3 ta portlovchi moddalarni qidirishga o‘rgatilgan itlardan foydalanilmoqda.

– Maxsus xizmat itlarining professional faoliyati uchun tibbiy yordam muhim sanaladi, – deydi Kinologiya bo‘linmasi veterinar-shifokori, leytenant Shahzod Aminjonov. – Shu sababli ham ularning sog‘lig‘ini muntazam tekshirib, jarohatlarsiz, sog‘lom holda xizmat qilishini ta'minlaymiz.

Shahzod Aminjonov mutaxassis sifatida xizmat itlarining jismoniy va psixologik holatini ham chuqur tahlil qilishga harakat qiladi. O‘ziga yarasha katta mas'uliyat va mehnat talab qiladigan bu faoliyat besamar ketmayotgani quvonarli, albatta.

Jahongir TO‘XTASINOV,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

EZGULIK YO‘LIDA

Samarqand viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta'minlash otryadi «Ezgulik patruli» maxsus guruhi PPX inspektori, safdor Gulruh Mirsaidovaning xizmat kuni mas'uliyatdan boshlanadi. Xizmat paytida uning diqqati har bir harakatda bo‘ladi, hushyorlik va sinchkovlik bilan odamlardan nigohini uzmaydi. Bir qarashda uning nigohida qat'iyat bor, ammo shu qat'iyat ortida mehr, e'tibor va himoyaga tayyor qalb yashaydi.



Ommaviy tadbir turli yoshdagi, turli kayfiyatdagi minglab insonlar to‘planadigan manzil. Bu jarayonda har bir vaziyatni oldindan his etish ehtimoliy muammoning oldini olish demakdir. Safdor Gulruh Mirsaidova buni yaxshi o‘zlashtirgan. U yosh bolalarning yo‘qolib qolmasligiga e'tibor qiladi, keksalarga yordam beradi, nimanidir so‘rashsa — tushuntiradi, yo‘l ko‘rsatadi. Har bir harakatida «Ezgulik patruli» shiori – ezgulik, himoya va ishonch mujassam.

Safdor Gulruh Mirsaidova zamonaviy ayol obrazining yorqin namunasi: jasur,

qat'iyatli, mas'uliyatli. Uning yutuqlari ortida doimiy o‘qib-o‘rganish, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, eng muhimi, Vatanga muhabbat hissi yashirin. Shu muhabbat uni har kuni forma kiyishga, el xizmatiga chiqishga undaydi.

– Men kasbimdan faxrlanaman. To‘g‘ri, jismonan va ruhan charchagan paytlarim bo‘ladi, ammo kasb mas'uliyati menga yana kuch beradi. Bir kuni qo‘shrabotlik otaxon Samarqand shahridagi konsertga kelganida 6 yoshli nabirasi yo‘qolib qoladi. Otaxon, endi ota-onasiga nima deyman, nabiramni topishda yordam beringlar, deb sarosimaga tushdi. Biz bolakayni izlashni boshladik. U konsert bo‘layotgan sahnaning old tomonida ekan. Uni sog‘-salomat bobosiga topshirdik. Otaxon bizni uzoq duo qildi va bu xotiramda umrbod saqlanib qoldi. Ana shu lahzalar xizmat faoliyatimizning eng katta mukofotidir, – deydi qahramonimiz.

Safdor Gulruh Mirsaidovaning kundalik xizmat faoliyati jamoat xavfsizligini ta'minlashda insonparvarlik va mas'uliyat qanchalik muhim ekanini yaqqol namoyon etadi. Uning hushyorligi, fidoyiligi va insonlar bilan muloqotdagi samimiyligi fuqarolarning tinchligi va xotirjamligiga xizmat qilmoqda.

Lavhamiz qahramoni xizmatdagi fidoyiligi va tashabbuskorligi uchun yaqinda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan viloyat hokimining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi. Ana shunday fidoyi xodimlar bor ekan, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik mustahkamlanib boradi, odamlar ishonchi yanada ortadi.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



* Inson charchoq holatida ijodiy fikrlashga ko'proq moyil bo'lar ekan.

* Kontaktingizdagi raqamlarning 80 foiziga hech qachon qo`ng`iroq qilmaysiz.

* Kichik narsalar nega tez unutiladi? Nimaga kalit, ko'zoynak, telefon, kabi kichik narsalarni qayerga qo'yganimizni unutib qo'yamiz? Miyamizda keraksiz xotiralarni tozalaydigan mehnatsevar hujayralar mavjud. Ushbu hujayralar xotiramizdagi barcha «foydasiz» narsalarni unutishga yordam beradigan gormon ishlab chiqaradi. Qizig'i shundaki, zavq bilan yaratilgan xotiralar yaxshiroq saqlanadi. Shuning uchun quvonchli xotiralarimizni ko'p vaqt eslab yuramiz.

* Nimaga uzum mevalariga qurt tushmaydi? Hasharotlarning lichinkalari uchun kislorod juda zarur. Olma, behi, o‘rik va shunga o‘xshash mevalarda kislorod juda ko‘p. Lekin uzumning mevasi sharbat bilan shu qadar zich to‘lganki, natijada kislorod uchun joy umuman qolmagan. Shuning uchun ham qurtni uchratmaymiz.

TELEFON TARBIYALAYOTGAN BOLALAR

ular kelajakda biz orzu qilgan insonlar bo‘lib ulg‘ayadimi?

Tan olaylik: bugun insoniyat hayoti telefonlar, gadjetlar va internet tarmog‘i bilan chambarchas bog‘lanib qoldi. Uyda ham, ko‘chada ham, yo‘lda ham, ovqatlanayotganda ham shu matohlarga «yopishib» qoladiganlar juda ko‘p. Telefon va planshetlar, ayniqsa, yoshlarning ajratib bo‘lmas «do‘sti»ga aylangan. Yomoni, yoshlar orasida virtual hayotga mukkasidan ketib, real hayotdan uzoqlashayotganlari kam emas.

Asabi chatoq o‘spirin



Asab kasalliklari shifokori huzuriga bir ona 14 yoshli o‘g‘lini yetaklab keldi.

– Keyingi paytda o‘g‘limning boshi tez-tez og‘riydigan bo‘lib qoldi. Tag‘in jahldor, har narsaga asabiylashadi. Biz bilan gaplashgisi kelmaydi.

Ona farzandida kechayotgan ruhiy jarayonlarni aytib bo‘lgach, shifokor unga savol berdi:

– O‘g‘lingiz telefonga qiziqadimi?

– Iye, qiziqadimi, deganingiz nimasi?! Telefon jinnisi. Erta-yu kech telefoniga tikilgani-tikilgan. «Ko‘rayotgan narsalaringni bizga ham ko‘rsat», desak, urishib ketadi. Juda qiyin ahvolda qoldik, do‘xtir. Shu balodan qutqarishning iloji bormikan?

Nevropatolog gap nima haqida ketayotganini darrov angladi.

– O‘g‘lingizga qachon telefon olib bergansiz?

– Ikki yil bo‘ldi.

– Ana, ko‘rdingizmi, bu muammoning boshlanishiga o‘zlaringiz sababchi, – dedi shifokor va zarur maslahatlarini berdi. Keyin onani tashqariga chiqarib, o‘smir bilan suhbatlashdi.

Hammasi oydin edi. Bola telefondagi o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketib, unga butunlay qaram bo‘lib qolgan. Alaloqibat, kuchli depressiyaga, ruhiy zo‘riqish holatiga tushgan.

– O‘smirlik – nihoyatda murakkab davr, – deydi bolalar asab kasalliklari shifokori Nodirjon Qo‘shaqov. – Bu davrni «o‘tish davri» deb ham atashadi. Bugungi kunda zamonaviy telefon va ijtimoiy tarmoqlar ana shu «o‘tish davri»ni yanada murakkablashtirib yubormoqda. Shu sababli bunday paytlarda ota-onalar farzandiga juda e'tiborli bo‘lishi zarur.

Mutaxassislarning ta'kidicha, hozir 14–19 yosh oralig‘idagi o‘spirinlarda yoshga xos bo‘lmagan nevroz alomatlari, bosh og‘rig‘i, asabiylik, tushkunlik kabi turli nevrologik kasalliklar ko‘p uchrayapti. Bemorlar bilan suhbatlashganingizda, ko‘pchiligi telefonga, undagi o‘yinlarga haddan tashqari bog‘lanib qolgani, real hayotdan zavqlanmayotgani ayon bo‘ladi.



Qush uyasida ko‘rganini qiladi

Bolalarning telefonga qaramligi ortida ota-onalarning loqaydligi turibdi, albatta. Chunki xalqimiz «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan maqolni bejiz aytmagan.

Ota ishdan keladi-yu, ovqatlanib bo‘lib, telefonini qo‘lga oladi. Ona ham allaqachon instagramda sayr qilib yuribdi. Katta o‘g‘il dars qilish bahonasida planshet orqali vaynerlarning bachkana videolarini tomosha qilyapti. Bir qarashda hammaning vaqti chog‘ o‘tyapti. Ammo... 3-sinfda o‘qiydigan Alisher yolg‘iz. Otasining oldiga borsa, qaramaydi. Onasining yoniga borsa, o‘zi bilan o‘zi ovora. «Darsingni qildingmi, bugun qaysi fanlar bo‘ldi?», deb so‘rash hech kimning xayoliga ham kelmaydi.

Bu – aksariyat oilalardagi bugungi manzara.

Nega biz shu matohga bunchalar mahliyo bo‘lib qoldik? Aslida uyga kelgandan so‘ng, ovqatlanib bo‘lgach, oilaviy suhbatlar qurganimiz yaxshi emasmi? O‘zaro muloqot va samimiy suhbatlar bola tarbiyasida ham juda muhim o‘rin tutadi. Bugun siz ular bilan gaplashmasangiz, keksaysangiz, ular ham sizga e'tibor qilmaydi, axir.

Eng yomoni, hozir bolalar va o‘smirlar telefon orqali vahshiylik va fahsh sahnalarini, bir-birini do‘pposlash, kaltaklash, haqoratlash manzaralarini bemalol tomosha qilib, voyaga yetmoqda.

Nevrologlarning aytishicha, bunday lavhalarni muntazam ko‘rish bolaning diydasini qotiradi. U loqayd va sovuqqon bo‘lib qoladi. Lavhada ko‘rgan vahshiylik va bezbetliklarni oddiy hol deb qabul qilib, o‘zi ham bemalol sodir etadi. Bu esa jinoyatga yetaklovchi eng katta omildir.

Yaqinda Farg‘onadagi oliygohlardan birida o‘qiyotgan 1-kurs talabalari ko‘chada bir-biriga pichoq o‘qtalib, tan jarohati yetkazdi. Bu qilmishi uchun 3 nafar yigit sudlandi. Keyinchalik surishtiruv va suhbatlarda ular telefondagi vahshiylikni targ‘ib qiluvchi o‘yinlarga mukkasidan ketgani ma'lum bo‘ldi. Yoshlar shu qadar jangari o‘yinlarga berilganki, ko‘chada birovga pichoq o‘qtalishdan hatto seskanishmagan. Bu biz uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘idir.



Xavfdan qanday qutulish mumkin?

Dunyo hamjamiyati, ziyolilar internet paydo bo‘lgan kundan boshlab uning salbiy tomonlari va xatarlaridan tashvishlanib, yoshlarni ulardan himoya qilishga urinib kelishadi. Bu borada hatto yirik hujjatlar, dasturlar ham qabul qilingan.

Mamlakatimizda ham bu yo‘nalishda juda ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash zarur. Masalan, 2017-yil 8-sentabrda «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan. Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar ittifoqi tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlarni zamonaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, bunday xurujlarga qarshi ma'naviy immunitetini shakllantirish maqsadida keng qamrovli targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirmoqda. Ammo qanchalik targ‘ib qilinmasin, ota-onalar bu borada hushyor bo‘lmasa, farzandlari nazoratini yetarlicha amalga oshirisholmasa, tahdidlar bizga xavf solaveradi.

Xulosa sifatida shuni aytish zarurki, internet tarmog‘i va kompyuterlar bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo‘ldi. Endi unga to‘siq qo‘yishning iloji yo‘q. Faqat farzandlarimizga undan to‘g‘ri, maqsadli va me'yorida foydalanish madaniyatini o‘rgatishimiz juda-juda zarur. Bu masala siyqasi chiqqan va e'tiborsiz qoladigan mavzu emas. Bu – farzandlarining taqdiriga, ertangi kuniga, sog‘lig‘iga befarq bo‘lmagan har qanday ota-onani hushyorlikka chorlaydigan mavzu.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.

KO‘RKAM KO‘RINISH KASB ETDI







Sanoatchilar shahri – Muborakda tuman IIB binosi kapital ta’mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tantanali tadbirda viloyat hokimi, IIB boshlig‘i, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, faxriylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan viloyat hokimi Murotjon Azimov mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ichki ishlar organlarini xalqchil, professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan hamkorligini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilgan ishlar natijasida tizim fuqarolarning ishonchli himoyachisi sifatida shakllanayotganini ta’kidladi.

Kapital ta’mirladan so‘ng binodagi xizmat xonalari, navbatchilik qismi, oshxona, kutubxona, «Vatanparvarlik burchagi», «Ma’naviyat va ma’rifat xonasi», saf maydoni zamonaviy ko‘rinish kasb etdi. Vorkaut, mini futbol hamda voleybol maydonchalarini o‘z ichiga olgan sport majmuasi barpo qilindi. Bundan tashqari,



tuman IIB Migratsiya va personallashtirish, Probatsiya xizmatlariga fuqarolar uchun barcha qulayliklar yaratildi.

Binoda yaratilgan zamonaviy sharoitlar jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlab, qariyb yuz mingga yaqin aholi osoyishtaligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qilishi shubhasiz.

O‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Nomingiz mangudir, ulug‘ bobojon!





